Ongli − qiyosiy metod amaliy, ta’limiy va tarbiyaviy maqsadda chettil o‘qitish jarayonida qo‘llandi. Amaliy maqsad retseptiv va reproduktiv nutq malakalarini taqozo etdi.

Elliginchi yillarda I.V.Raxmanov metodik asarlari, V.S.Setlin (1950, 1955) fransuz tili o‘qitish, V.D.Arakin (1950, 1958) ingliz tili o‘qitish, A.S.Andreevskaya − Levensteri va O.E.Mixaylova (1958) fransuz tili o‘qitish metodikalaridan qo‘llanmalari va boshqa kitoblar nashr etildi. Ularda ongli

–qiyosiy metodning asosiy prinsiplaridan bo‘lmish ikki tilni taqqoslashga e’tibor qaratilgan.

1961 yildan hozirgacha chet til o‘qitish jarayonida qo‘llanayotgan metodni zamonaviylashtirilgan ongli − qiyosiy metod (yoki shartli nom bilan «Raxmanov va shogirdlari metodi») deb yuritish mumkin.

1917 yildan hozirgacha chet til o‘qitish metodikasi tarixi. Bu davr chet til o‘qitish metodikasi tarixini ilmiy adabiyotda besh bosqichga bo‘linadi. Ushbu bosqichlarni aniqlashni A.A.Mirolyubov quyidagicha amalga oshirgan: 1-Bosqich-1917-1923, 2-Bosqich -1924- 1931, 3-Bosqich -1932 - 1946, 4 - Bosqich - 1947 - 1959, 5 - Bosqich -1960 -hozirgacha (S.F.Shatilov ikkinchi bosqichni (1924-1930) qisman o‘zgartirib, uchinchi (1931 — 1944), to‘rtinchi (1944-1961) va beshinchi bosqichni (1961 − hozirgacha) yillarini bo‘lakcha qabul qilib hamda birinchi bosqichni tushurib qoldirgan holda to‘rt bosqichli davrlashtirishni tavsiya qilgan).

Chet tillar o‘qitish metodikasi predmeti. O‘qitish ilmini metodika fani yoritadi. Methodike-yunoncha bo‘lib, «biror ishni maqsadga muvofiq bajarish usullari majmui» ma’nosini bildiradi. O‘zbek tilida «uslubiyot» atamasi ham istifoda qilinmoqda. (“Metodika” atamasi uchta ma’noga ega. Birinchisi o‘quv predmetini bildiradi (mas. «ertaga birinchi dars - metodika») ikkinchisi - ta’limning metodik usullari yig‘indisi (mas, «O‘qituvchimiz metodikasi mengayoqadi») va uchinchisi-ta’lim nazariyasi va maxsus fan (mas. «bu qo‘llanmada metodika yaxshi yoritilibdi»)ni ifodalaydi.

Metodika fani asosan quyidagi uch yirik uslubiy mavzu bilan shug‘ullanadi: chet til o‘rgatishning nazariyasi, nutq faoliyati turlarini o‘rgatish va chet til o‘rgatishning tashkiliy masalalari.

Chet tillar o‘qitish metodikasi fanining o‘rgatish predmeti qilib chet til vositasida o‘quvchilarga (o‘rta maktab, litsey, kollejda) ta’lim-tarbiya berish belgilanadi.

Asosiy metodik tushunchalar. Chettillar o‘qitish metodikasida qabul qilingan asosiy tushunchalar katoriga kuyidagilarni kiritish mumkin: ta’lim sistemasi, ta’lim metodi, ta’lim prinsipi, ta’lim vositasi, metodik usul.

Ta'lim jarayoni sistema, deb qaralmoqda. Muayyan zamon va makondoirasida amalga oshiriladigai chet til o'quv jarayoni ochiq (aniq chegara qo'yilmagan) sistema hisoblanadi va u nashr etilgan chet til «o'quv − metodika kompleksida» o'z ifodasini topadi. Ta'lim sistemasi ko'zlanadigan maqsad, shakllanadigan mazmun vaqo'llanadigan metod singari kategoriyalardan iborat.

Chet tillar o'qitish metodi deyilganda chet til o'rtnishning amaliy,umumta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadni ta'minlovchi muallim va o'quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi.

Metod atamasi «ta'lim usullari yig'indisi» va «ta'limning yo'nalishi» ma'nolarida qo'llanadi. Birinchisi talim nazariyasida ishlatilsa (mas. Og'zaki nutq o'rgatish metodlari, talaffuz o'rgatish metodlari), ikkinchi ma'noda uni o'qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratamiz. Mas. Chet til o'qitishning tarjima metodi, to'g'ri metod, ongli − qiyosiy metod, ai'anaviy metod, intensiv metod va h.k.z.

Prinsiplar metodni shakllantiradi. O'quvchilarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish asos bo'ladigan metodik qonun − qoidani prinsip atamasi bilan yuritiladi.

Ta'lim vositasi atamasi metodikada ikki ma'noni ifodalaydi. Birinchi ma'nosi «ta'limning moddiy vositasi» (darslik, o'qituvchi kitobi, texnika vositalari kabilar) ni bildiradi. Ikkinchi ma'nosi esa nutq faoliyati turiga taalluqlidir (mas. yozuv chet til o'rgatish vositasidir).

Metodik usul yanada kichik tushuncha bo'lib, «yangi so'zning ma'nosini ochish usullari», «til materialini o'rgatish usullari» singari birikmalarda uchraydi.

Umumiy va xususiy metodika. Fanda umumiy va xususiy chegaralanish kuzatiladi. Til materialini tanlash, tasnif qilish, taqsimlash va bayon etish muammolari umumiy metodikada tadqiq etiladi.

U yoki buchet tilni aniq pedagogik sharoitda o'rgatishga doir ma'lumotlar xususiy metodikadan qidiriladi. Mas. o'zbek maktablarida xitoy tili o'qitish metodikasi yoki rus maktablarida arab tili o'qitish metodikasi.

Ilmiy tadqiqot metodlari. Ilmiy tadqiqot metodlariga ega boʻlmagan bironta fan yoʻq. Chet til metodikasi ham fan sifatida oʻzining ilmiy tadqiqot metodlari bilan ish koʻradi.

Ilmiy tadqiqot metodlari ikkiga boʻlinadi-nazariy metodlar va tajribaga asoslanadigan metodlar. Tadqiqotning nazariy metodlariga analiz-sintez, ilmiy faraz (gipoteza)lar qilish, modellashtirish tegishlidir. Amaliy-tajriba metodlari orasida eksperiment, tajriba oʻtkazish, maqsadli kuzatish kabilar ma’lum va ma’quldir.

Asosiy (nazariy) metodlardan analiz-sintez metodiga adabiy manbalar (mas. Chet til oʻqitishni retrospektiv planda, ya’ni uning tarixini oʻrganishni) analiz qilishni misolkeltirish mumkin.

Analiz metodi oldiga doimo tanqidiy yondashish, oʻtish davrdagi ijobiyva salbiytomonlarnianiqlashmaqsadqilibqoʻyiladi. Olinganijobiy natijahozirgi kundagioʻqitish tajribasiga tatbiq etiladi.

Chet til oʻqitishdagi ilgʻor tajribalarni oʻrganishga,umumlashtirish va oʻqishdan koʻzlanadigan maqsad ijobiy natijalarni qoʻlga kiritishga qaratiladi.

Asosiy (umumiy) tadqiqot metodlaridan ilmiy kuzatish pedagogik jarayonda ommaviy tus olgan boʻlib, metodik tadqiqotda xulosalar chiqarish, foydali axborot yigʻish kuzatilgan hodisalar yuzasidan toʻilangan faktlarni tasniflash imkonini tugʻdiradi.

Tajriba oʻtkazish -ommaviy ta’lim jarayonini tekshirish metodidir. Boshqa metodlardan tajriba oʻtkazishning farqi shundan iboratki, koʻp sonli maktablarda uzoq muddat davomida oʻtkaziladigan tajriba oʻzining oʻta ishonarli ma’lumotlari tufayli oʻquv jarayonining modeli sifatida namoyon boʻladi.

An’anaviy metodik kategoriyalar eksperimentdan oʻtishda, albatta, yangichayondashish, boshqacha variant kiritish usuli tekshirib koʻriladi.

Eksperiment nazariyasini eksperimentator yaratadi, ijrochi rolida muallim, tekshiriluvchilarni oʻquvchilar tashkil etadi, eksperiment materiali sanalmish metodika hodisasi - ob’ekt va predmet deb ataladi.

Ilmiy tadqiqotda yetakchi metodlardan yana biri kuzatish atamasi bilan ma’lum. Ayrim metodistlar kuzatish bilan tajriba to‘plashni chalkashtirishadi. Tadqiqotning boshlanish davrida kuzatish mustaqil metod sifatida qo‘llanadi, keyingi bosqichlarda yordamchi metod vazifasini o‘taydi. Ilg‘or ish tajribasini o‘rganish, uniumumlashtirish va amaliyotga tatbiq etish ta’lim jarayonini takomillashtirish usulidir. Unga analiz qo‘shilsa, metodga aylanadi.

Keyingi yillarda chet til o‘qitishda testlar o‘tkazish ommaviy tus oldi.Testlar eksperiment oldidan va undan keyingi o‘tkazilishi amaliyotda sinab ko‘rilgan. Eksperimentdagi ilmiy farazning tasdiqlanish/tasdiqlanmasligida testning ahamiyati juda kattadir. Test texnika vositalari bilan yoki pechat qilingan materialni qo‘llash bilan o‘tkaziladi.

Tadqiqot metodlaridan suhbat o‘ta qadimiy va ko‘pchilik fanlarda tarqalgan yordamchi metoddir. Suhbat o‘quvchilar va muallimlar bilan o‘tkaziladi. Suhbat chog‘ida tadqiqotchi o‘z maqsadlariga savol-javob yo‘li bilan erishishga urinadi.

Chet til o‘qitish metodlari tarixi. Chet til o‘qitish tarixida metodlar to‘rt nom bilan ma’lum: tarjima, to‘g‘ri, aralash va qiyosiy metod.

**Qiyosiy metod.**Uning to‘liqnomi ongli − qiyosiymetoddebataladi. Asrimizning30 —yillarida ongli− qiyosiy metod shakllana boshladi. Programma, darslik, o‘quv qo‘llanmalari tayyorlandi. Metodik adabiyotlar orasida L. V. Shcherba, K. A. Ganshina,I. A, Gruzinskaya, A. A. Lyubarskaya, G. V. Goldshteyn va R. K. Rozenborg va Z. M. Svetkova asarlarini ko‘rsatib o‘tish joizdir. «Inostrannые yaziki v shkole» jurnali ta’sis etildi. 1947 yilda L. V. Shcherbaning «Prepodovanie inostrannix yazikov v sredney shkole» (ikkinchi nashri 1974 yil) kitobi Moskvada chop etildi.

Ongli − qiyosiy metod amaliy, ta’limiy va tarbiyaviy maqsadda chettil o‘qitish jarayonida qo‘llandi. Amaliy maqsad retseptiv va reproduktiv nutq malakalarini taqozo etdi.

Elliginchi yillarda I. V. Raxmanov metodik asarlari, V.S.Setlin (1950, 1955) fransuz tili o‘qitish, V. D. Arakin (1950, 1958) ingliz tili o‘qitish, A. S. Andreevskaya − Levensteri va O. E. Mixaylova (1958) fransuz tili o‘qitish

metodikalaridan qo‘llanmalari va boshqa kitoblar nashr etildi. Ularda ongli −qiyosiy metodning asosiy prinsiplaridan bo‘lmish ikki tilni taqqoslashga e’tibor qaratilgan.

1961 yildan hozirgacha chet til o‘qitish jarayonida qo‘llanayotgan metodni zamonaviylashtirilgan ongli − qiyosiy metod (yoki shartli nom bilan «Raxmanov va shogirdlari metodi») deb yuritish mumkin.

1917 yildan hozirgacha chet til o‘qitish metodikasi tarixi. Bu davr chet til o‘qitish metodikasi tarixini ilmiy adabiyotda besh bosqichga bo‘linadi. Ushbu bosqichlarni aniqlashni A.A.Mirolyubov quyidagicha amalga oshiggan: 1-Bosqich-1917-1923, 2-Bosqich -1924- 1931, 3-Bosqich -1932 - 1946, 4 - Bosqich - 1947 - 1959, 5 - Bosqich -1960 -hozirgacha (S. F. SHatilov ikkinchi bosqichni (1924-1930) qisman o‘zgartirib, uchinchi (1931 — 1944), to‘rtinchi (1944-1961) va beshinchi bosqichni (1961 − hozirgacha) yillarini bo‘lakcha qabul qilib hamda birinchi bosqichni tushurib qoldirgan holda to‘rt bosqichli davrlashtirishni tavsiya qilgan).

**Nazorat savollari:**

1. Chet til o‘qitish qiyosiy metodikasi nima haqida bahs yuritadi?
2. Turli o‘quv yurtlirida chet til o‘qitish qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
3. Tillar ta’limshunosligining tadqiqot ob’ektini nima tashkil etadi?
4.Chet til o‘qitishning nechta bosqichi bor?
5.Zamonaviy metodlardan qaysi birlari qo‘llanilmoqda?
6.O‘zbekistondachettilo‘qitishningasosiyxususiyatlari nimalardan iborat?

## 3-MAVZU.PEDAGOGNING UMUMKASBIY KOMPETENSIYASI

**REJA:**

1. Pedagogik kompetentlikning umumiy tavsifi
    1.1. “Kompetentlik” tushunchasining mohiyati. Kasbiy kompetentlik.
    1.2. Kasbiy kompetentliksifatlari (ijtimoiy kompetentlik, maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va

kommunikativ) kompetentlik, shaxsiy kompetentlik, texnologik kompetentlik, ektremal kompetentlik.

1.3. Pedagogga xos kasbiy kompetentlikning tarkibiy asoslariga nisbatan ilmiy yondashuvlar.

1.4. Pedagogning o‘z ustida ishlashi, o‘zini o‘zi tahlil qilishi va baholashi.

2. Muloqotni tashkil etishda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi

2.1. Pedagogik muloqot haqida tushuncha.

2.2. Pedagogik muloqotning asosiy funksiyasi (tarkibi)

2.3. Muloqot turlari va madaniyati.

2.4. O’qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi.

3. Pedagogik nazokat va odob-axloq

3.1. Pedagogik takt haqida umumiy tushuncha.

3.2. Pedagogik taktni amalga oshirish shartlari

3.3. Pedagogik takt va taktika.

3.4. Pedagogik kommunikativ ko’nikmalarini rivojlantirish

4. Pedagogik texnika. Nutq texnikasi va madaniyati

4.1. Pedagogik texnika va uning tarkibiy qismlari.

4.2. Pedagogning tashqi ko’rinishi va uni maqsadga yo’nalganligi.

4.3. Yosh o’qituvchilar faoliyatida namoyon bo’ladigan tipik xatolar, ularni bartaraf etish.

4.4. Pedagogik texnikani egallash yo’llari.

4.5. Til va nutq. Nutqning inson hayoti va taraqqiyotidagi o’rni.

4.6. Nutq madaniyati haqida tushuncha.

4.7. Nutq texnikasi: o’qituvchi nutqining mantiqiyligi, grammatik jihatdan to’g’riligi.

4.8. O’qituvchining nutqiy mahoratini takomillashtirish yo’llari.

**Tayanch iborlar:** *kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy kompetentlik sifatlari, pedagogik kasbiy kompetentlik, Individual rivojlantirish dasturi, pedagogning individual rivojlanish dasturi, o‘z-o‘zini rivojlantirish, pedagogning o‘z ustida ishlashi, pedagogning o‘z ustida ishlash bosqichlari, o‘z-o‘zini baholash, pedagogik muloqot. Muloqot funktsiyalari. Shaxsni o’rganish. Axborot ayriboshlash. Faoliyatini tashkil etish. Muloqot elimentlari.Muloqot turlari.Muloqotdagi kamchiliklar.Avtoritar uslub.Demokratik uslub.Liberal uslub, pedagogik takt, taktika, peadagogik nazokat va odob-ahloq, pedagogik nazokat me`yori, yoqtirish, yoqtirmaslik, psixologik muhit, o’qituvchi nazokatini shakllantirish*

**Foydalanishuchunadabiyotlar:**

1. MarkovaA.K. Psixologiyaprofessionalizma. – M.: Znanie, 1996.

2. MuslimovN.A. Bo‘lajakkasbta’limio‘qituvchilarinikasbiyshakllantirish /Monografiya. – T.: Fan, 2004.
3. MuslimovN.A., N.Karimova. Kasbta’limio‘qituvchilariningamaliykompetentliginishakllantirishtexnologiyasi. – T.: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2012.

**“Kompetentlik” tushunchasining mohiyati.** Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo‘sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur. Ayni o‘rinda shu va shunga yondosh g‘oyalar yuzasidan so‘z yuritiladi.

*Inglizcha* ***“competence”****tushunchasi lug‘aviy jihatdan bevosita “qobilyat” ma’nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariybilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi*

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

**Kasbiy kompetentlik –** mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, konikma va malakalarning egallanishiva ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatlarda harakat rejasiga ega bo‘la olishda

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:
- O‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- Yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- Davr talablarini chuqur anglaydi;
- Yangi bilimlarni izlab topadi;
- Ularni qayta ishlaydi va amaliy faoliyatda samarali qo‘llaydi

Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlaraks etadi:




1-rasm. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar.

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

**1. Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

**2. Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ,

innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

**1) psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

**2) metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

**3) informatsion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

**4) kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

**5) innovatsion kompetentlik** – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

**6) kommunikativ kompetentlik** – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

**3. Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

**4. Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

**5. Ekstremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

Pedagog-olimlarning ishlarida kompetentlikni pedagogik nuqtai-nazardan yanada kengroq va sinchiklab o‘rganish imkonini beradigan turli jihatlari va tarkibiy qismlari ajratib olingan va o‘rganib chiqilgan.

S.E. Shishov tomonidan kompetentlikning quyidagi ta’riflari keltirilgan:

- o‘qish-o‘rganish tufayli egallangan bilimlar, tajriba, qadriyatlar va moyilliklarga asoslangan umumiy layoqatlilik;

- bilim va vaziyatlar o‘rtasidagi aloqani o‘rnata bilish qobiliyati, muammoga mos keladigan hal etish yo‘lini topish (kompetentlik deb aytish uchun biror-bir vaziyatda namoyon etiladigan taqdirdagina joiz bo‘ladi, namoyon etilmagan kompetentlik – kompetentlik emas, yashirin imkoniyatlar bo‘lib qolsa ham katta gap).

L.M. Dolgova, P.V. Simonov va boshqalarning fikricha, kompetentlik − olingan bilimlarga asoslangan holda harakat qila olishlik demakdir. Namunalarga o‘xshash harakatlarni ko‘zda tutadigan “bilim, ko‘nikma va malakalardan” farqli o‘laroq, kompetentlik universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadi. “Kompetentlik – ijtimoiy amaliyot ko‘rinishidagi bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi bo‘lib, u ta’lim jarayoni natijalariga ijtimoiy-madaniy talablar va jamiyat tomonidan talablar qo‘yiladigan hollarda namoyon bo‘ladi”, − deb ta’kidlaydi L.M. Dolgova.

V.V. Bashevning ta’kidlashicha, kompetentliklar – insonning individual qobiliyati bo‘lib, ular shart-sharoitlar o‘zgargan paytda ushbu qobiliyatning boshqa shart-sharoitlarga ko‘cha olishida namoyon bo‘ladi. Qo‘llash sohalari ularning maxsusligi va aniqligini belgilaydi (matematik, tillar bo‘yicha, siyosiy va boshqa kompetentliklar). Jamiyatni o‘rganish sohasida samarali faoliyat ko‘rsatuvchi odam quyidagilarga qodir bo‘lishi kerak, ya’ni kompetentli odam:

1) o‘zi tushib qolgan vaziyatni tadqiq eta olishi;

2) boshqa odamlar bilan muloqot o‘rnata olishi;

3) qarorlar qabul qila olishi;

4) qabul qilingan qarorlarni amalga oshirish bo‘yicha individual va jamoaviy harakatlarni tashkillashtira olishi;

5) faoliyatning yangi usullarini egallay olishi.

Shunday qilib, kompetentlikni layoqatlilik, tayyorlik, imkoniyatga egalik va shu bilan birga, ma’lim bir harakatlar natijasi sifatida talqin etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda, kompetentlik – faoliyatga doir kategoriya bo‘lib, sub’ektning qo‘yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan kasbiy, ijtimoiy va boshqa faoliyati jarayonida namoyon bo‘ladi.

Kompetentlik – individning umuman jamiyatda va xususan kasbiy sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun zarur bo‘lgan, atrofidagi ob’ektlar va sub’ektlar bilan o‘zaro hamkorligi bo‘yicha ma’lum bir malakalari va kasbiy tajribalari shakllanganligining muayyan darajasi demakdir.

N.G. Vitkovskayaning ta’riflashicha, kompetentlik − qo‘yilgan muammolarni hal etishga qaratilgan insonning ichki (bilim, ko‘nikma va malakalari, ma’naviy sifatlari, psixologik xususiyatlari) va tashqi (moddiy-texnik, ijtimoiy) imkoniyatlarini safarbar qila olishga qodirligidir.

Psixologik nuqtai-nazardan, A.K. Markovaning fikricha, kompetentlik – muayyan insonning xarakteristikasi, ya’ni kasbiy talablarga munosibligi darajasi bo‘yicha insonning individual xarakteristikasi demakdir.

N.A.Muslimov o‘zining tadqiqot ishlarida o‘qituvchining kasbiy kompetentligini shakllanganlik asosini oltita sifatlar, ya’ni motivatsion xislatlar (insonning butun hayoti davomida shakllanib, rivojlanib boruvchi tanlagan kasbiga bo‘lgan ehtiyojlari, motivlari va maqsadlarni qamrab oladi), intellektual salohiyat (barcha rasmiy hujjatlar asosida o‘qituvchi axborot va ma’lumotlarni uzatishga, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga intiladi), irodaviy sifatlar (maqsadga intiluvchanlik, ichki va tashqi to‘siqlarni, jismoniy va aqliy zo‘riqishlarni enga olishlik, o‘zini tuta bilishlik va tashabbuskorlik xislatlari), amaliy ko‘nikmalar (psixologik, pedagogik, metodik va texnik-texnologik qobiliyatlar, amallar, individning faoliyat va muloqotning turli sohalaridagi ko‘nikmalari), hissiy sifatlar (o‘z hissiyotlarini boshqarishning zaruriy malakalarini shakllantirishi, o‘zining aniq hislari (qahr, g‘azab, bezovtalik, arazlash, hasad, hamdardlik, uyalish, mag‘rurlik, qo‘rqish, ko‘ngilchanlik, muhabbat va

boshqalar)ni boshqarishi hamda o‘z hissiy holatlarini va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni tushunishi) hamda o‘z–o‘zini boshqara olish (maqsadlarni va ularga erishish vositalarini tanlashdagi erkinlik, vijdonlilik, o‘z faoliyatiga tanqidiy yondoshuv, harakatlarning keng qamrovliligi va anglanganligi, o‘z xulqini boshqalarniki bilan qiyoslab borishi, kelajakka ishonchi, o‘z jismoniy va psixologik holatini talab darajasida tutib turishi va boshqara olishi) sifatlari tashkil yetishini ta’kidlab o‘tadi.

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan. Ana shunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin.

O‘z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi.

O‘zbekiston sharoitida ham pedagogga xos kasbiy kompetentlik, uning o‘ziga xos jihatlari o‘ranilgan bo‘lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi:

Kasbiy (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo‘lishda **o‘z ustida ishlash** va **o‘z-o‘zini rivojlantirish** muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari **o‘zini o‘zi tahlil qilish** va **o‘zini o‘zi baholash** orqali aniqlanadi.

**O‘z ustida ishlash** quyidagilarda ko‘rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish.

Pedagogning o‘z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi. Ular:

Pedagogning mutaxassis sifatida:

- aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;
- pedagogik jarayon samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish;
- ilg‘or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lish;
- faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish;
- kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish;
- salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo‘lida olib boradigan amaliy harakati uning o‘z ustida ishlashini ifodalaydi.

Pedagoglarning o‘z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo‘l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir. Modelda o‘z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar qayd etiladi. Har bir bosqich uchun belgilangan vazifalarning samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o‘tish imkonini beradi. Ma’lum bosqich vazifalari hal etilgach, pedagog bu holatni alohida bandda qayd etadi (1-jadval):

**1-jadval. Pedagogning o‘z ustida ishlash modeli**

| Bosqichlar | Ularda amalga oshiriladigan vazifalar | Qaydlar |
|---|---|---|
| 1-bosqich | | |
| 2-bosqich | | |
| 3-bosqich | | |
| 4-bosqich | | |
| 5-bosqich | | |

Pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishida o‘zini o‘zi tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi.

***O‘zini o‘zi tahlil qilish*** *pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o‘z amaliy harakatlari mohiyatining o‘rganilishidir*

O‘zini o‘zi tahlil qilish orqali pedagog o‘zini o‘zi ob’ektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo‘lishida ularning o‘z-o‘zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

> ***O‘zini o‘zi baholash*** *(O‘O‘B) – shaxsning o‘z-o‘zini tahlil qilishi orqali o‘ziga baho berishi.* ***O‘zini o‘zi baholash*** *sub’ekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o‘ziga ob’ektiv baho berish, o‘zidan qoniqishni ta’minlaydi*

**O‘z-o‘zini baholash** shaxsning qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. O‘z-o‘zini baholash qiyin, lekin shaxsni bunga bevosita tayyorlash mumkin. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi pedagogning ham o‘zini o‘zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi.

**O‘zini o‘zi samarali baholash omillari:**

1. O‘zini tushunish (o‘zi haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish).

2. Shaxs sifatida o‘z qadr-qimmatini anglash (o‘zi to‘g‘risidagi ijobiy ma’lumotlarni to‘plash).

3. O‘zini-o‘zi nazorat qilish (o‘zi to‘g‘risidagi shaxsiy fikrning atrofdagilar tomonidan unga berilayotgan bahoga mos kelishi.

O‘z-o‘zini baholash darajasi shaxsning o‘z-o‘zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim. O‘zini o‘zi oshirib yoki pasaytirib ko‘rsatish o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlarining noto‘g‘ri bo‘lishiga olib keladi.

Ko‘plab manbalarda shaxs tomonidan o‘z-o‘zini baholash quyidagi formula asosida aniqlanishi ko‘rsatilgan:

**O‘O‘B = yutuqlar / o‘zini yuqori baholashga intilish**

**(yoki O‘O‘B = YU / O‘YUBI)**

Formulaga ko‘ra, qandaydir yutuqqa erishgach, shaxs tomonidan o‘zini o‘zi yuqori baholash (yutuqlar hissasini oshirish) yoki o‘ziga nisbatan qo‘yayotgan talablarni pasaytirish ro‘y beradi.

Bizning fikrimizcha, O‘O‘Bda xolislikka erishishda quyidagi formula ham qo‘l keladi:

**O‘O‘B  = yutuqlar / o‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari**

**(yoki O‘O‘B = YU / O‘O‘RV)**

Ushbu formula bilan ishlashda pedagog quyidagi o‘zini-o‘zi baholash modeliga tayanib ish ko‘rishi mumkin (2-jadval):

**2-jadval. O‘zini-o‘zi baholash modeli**

| № | Mavjud yutuqlar | O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari |
|---|---|---|
| 1. | | |
| 2. | | |
| 3. | | |
| ... | | |

Ushbu model asosida o‘z-o‘zini baholash nihoyatda oson kechadi. Bordi-yu, erishilgan yutuqlar soni o‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalariga nisbatan ko‘p (1 dan katta) bo‘lsa, u holda pedagog yuqori darajada kasbiy kompetentlikni namoyon etadi. Bordi-yu, yutuqlar va belgilangan o‘zini o‘zi rivojlantirish vazifalari o‘zaro (1 ga) teng bo‘lsa, u holda u o‘zida o‘rta darajadagi kasbiy kompetenlikni ifodalaydi. Agarda, yutuqlar soni belgilangan rivojlantirish vazifalaridan kam (1 dan kichik yoki 0 ga teng) bo‘lsa, u holda pedagogning kasbiy kompetentlik darajasi  past hisoblanadi va bu holat pedagogdan o‘z kasbiy kompetentligini rivojlantirishga jiddiy e’tibor berishini talab qiladi.

Formulada “o‘zini o‘zi rivojlantirish vazifalari” jumlasi qo‘llanilgan ekan, eng avvalo, o‘zini o‘zi rivojlantirish nima ekanligini tushunish olish lozim.

> ***O‘z-o‘zini rivojlantirish** – shaxsning o‘zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil yetishi*

Bir qator tadqiqotlarda mutaxassis, shu jumladan, pedagogning o‘z-o‘zini rivojlantirishida “Individual rivojlanish dasturi” qo‘l kelishi aytiladi.

***Individual rivojlanish dasturi (IRD)*** *– har bir shaxs yoki mutaxassisning o'zida ma'lum sifat, BKM,kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dastur*

Ushbu dasturdakasbiy faoliyatni tashkil etish uchunzarur bo'lgan BKM hamda kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish muddatlari belgilanadi.

Har qanday mutaxassis kabi pedagog ham o'zi uchun shaxsiy-amaliy xarakterga ega "Individual rivojlanish dasturi"ni ishlab chiqa olishi, u asosida pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yishi zarur.

**Pedagogning individual rivojlanish dasturi** – mutaxassis sifatida pedagogning individual ravishda o'zida u yoki bu kasbiy-pedagogik sifat, bilim, ko'nikma, malakalar, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dasturi pedagog tomonidan ishlab chiqiladigan "Individual rivojlanish dasturi" quyidagi tarkibiy elementlardan tarkib topadi:

pedagogik bilimlar;

1) psixologik bilimlar;
2) mutaxassislik bilimlari;
3) didaktik malakalar;
4) tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari;
5) ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar;
6) o'z-o'zini rivojlantirish maqsadlari;
7) o'z-o'zini rivojlantirish uchun topshiriqlar

Quyidagi pedagogning "Individual rivojlantirish dasturi"ning namunasi keltiriladi (3-jadval):

**3-jadval. Individual rivojlantirish dasturi**

| Bilim, malaka va shaxsiy sifatlar | Mavjud daraja | Istiqbol vazifalar |
|---|---|---|
| Pedagogik bilimlar | | |
| Psixologik bilimlar | | |
| Mutaxassislik bilimlari | | |
| Didaktik malakalar:<br>bilishga oid (gnostik) loyihalash<br>ijodiy-amaliy (konstruktiv)<br>tadqiqotchilik<br>muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ)<br>tashkilotchilik<br>izchillikni ta’minlovchi (protsesssual)<br>texnik-texnologik malakalar | | |
| Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari:<br>bilishga oid (gnostik)<br>loyihalash malakalari<br>ijodiy-amaliy (konstruktiv)<br>tadqiqotchilik<br>muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ)<br>tashkilotchilik<br>izchillikni ta’minlovchi (protsesssual)<br>texnik-texnologik malakalar | | |
| Ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar:<br>pedagogik fikrlash<br>tizimlilik<br>moslashuvchanlik<br>mobillik<br>ijodkorlik<br>hozirjavoblik<br>hissiy rivojlanganlik<br>pedagogik refleksiya | | |
| O‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadlari | | |
| O‘z-o‘zini rivojlantirish uchun topshiriqlar | | |

Pedagogning kasbiy jihatdan rivojlanish darajasini yana quyidagi shkala yordamida ham aniqlash mumkin (4-jadval):

**4-jadval. Kasbiy rivojlanish shkalasi**

| № | Kasbiy kompetentlik sifatlari | Shkala ko‘rsatkichlari | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 10 | 9 | 8 | 7 | 6 | 5 | 4 | 3 | 2 | 1 |
| **1. Ijtimoiy kompetentlik** | | | | | | | | | | | |

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1) | ijtimoiy tashkilotlar va sub’ektlar bilan o‘zaro munosabatda bo‘la olish ko‘nikma, malakalariga egalik | | | | | | | | | | |
| 2) | kasbiy muloqot va xatti-harakat uslublarini o‘zlashtira olganlik | | | | | | | | | | |
| **2. Shaxsiy kompetentlik** | | | | | | | | | | | |
| 1) | doimiy ravishda kasbiy o‘sishga erishish va kasbiy malakani oshirib borish | | | | | | | | | | |
| 2) | kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olish | | | | | | | | | | |
| **3. Maxsus kompetentlik** | | | | | | | | | | | |
| 1) | mustaqil ravishda kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish | | | | | | | | | | |
| 2) | odatiy kasbiy-pedagogik vazifalarni to‘g‘ri hal qilish va o‘z mehnatining natijalarini real baholash malakasiga egalik | | | | | | | | | | |
| 3) | mutaxassisligi bo‘yicha yangi bilim va ko‘nikmalarni mustaqil ravishda izchil o‘zlashtirib borish qobiliyatiga egalik | | | | | | | | | | |
| **4. Texnologik kompetentlik** | | | | | | | | | | | |
| 1) | kasbiy-pedagogik bilim, ko‘nikma va malakalarni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish qobiliyatiga egalik | | | | | | | | | | |
| 2) | zamonaviy didaktik vositalar (texnik vositalar, o‘quv qurollari)dan foydalanish malakasiga egalik | | | | | | | | | | |
| **5. Ekstremal kompetentlik** | | | | | | | | | | | |
| 1) | favqulotda holatlarda (tabiiy ofatlar sodir bo‘lganda, texnologik jarayon ishdan chiqqanda) oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik | | | | | | | | | | |

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 2) | muammoli vaziyatlarda (pedagogik ziddiyatlar yuzaga kelganda) oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik | | | | | | | | | | |

Shunday qilib, bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida yuzaga keladigan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o‘zida kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga undaydi. Lug‘aviy jihatdan “qobiliyat”, mazmunan esa “faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish” ma’nosini anglatuvchi kompetentlik negizida muayyan sifatlar namoyon bo‘ladi. Xususan, pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida ijtimoiy, maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion hamda kommunikativ), shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentlik kabi sifatlar aks etadi. Bir qator, xususan, A.K.Markova hamda B.Nazarovalarning tadqiqotlarida pedagogik kompetentlikning tarkibiy asoslari qayd etib o‘tilgan. Pedagogning kasbiy kompetensiyasi pedagogik (o‘quv va tarbiya) jarayonni samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta’minlaydi. Kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lish uchun pedagog o‘z-o‘zini izchil rivojlantirib borishga e’tiborni qaratishi zarur. O‘z-o‘zini rivojlantirishda pedagogga “Individual rivojlanish dasturi” qo‘l keladi. Zero, ushbu dasturda pedagogda mavjud bo‘lgan kompetentlik sifatlari va rivojlantirish zarur bo‘lgan sifat, BKMni aniq, xolis ifodalash mumkin. Pedagogik muloqot - qulay psixologik muhit yaratish maqsadida o’qituvchining o’quvchi bilan dars va undan tashqaridagi haqiqiy mulqotdir.

Hozirgi zamon psixologiyasi shaxslararo muloqotning ahamiyatini chuqur o’rganmoqda. Ayniqsa muloqot qonuniyatlarini bilish hamma muloqot o’rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish pedagog uchun, ayniqsa muhimdir. Negaki, uning kasbiga ko’ra vazifasi ham agar u o’quvchilarni o’zi bilan birgalikdagi faoliyatga unumli talab qila bilgan, tarbiyaning maqsadlari va vazifalariga javob bervadigan tarzdagi o’zaro birgalikdagi harakat va o’zaro hamjihatlikni yo’lga qo’ya olgan, ya`ni to’laqonli pedagogik muloqotni o’rnata olgan taqdirdagina, muvaffaqiyatli hal etilishi mumkin.

Pedagog faoliyatining didaktik va xususan tarbiyaviy vazifalarini o’qituvchi bilan o’quvchilar jamoasi o’rtasidagi sermahsul muloqat jarayonini tashkil etmasdan turib yetarli darajada unimli tarzda amalga oshirib bo’lmaydi. Shu tariqa pedagog faoliyatida muloqat;

**Birinchidan**, xususan o'quv va o'quv vazifalarini hal etish vositasi sifatida;

**Ikkinchidan**, tarbiyaviy jarayonini ijtimoiy psixologik jihatdan ta`minlovchi tizim sifatida;

**Uchinchidan,** o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida ta`lim va tarbiyaning muvaffaqiyatli olib borishiga imkon beradigan o'zaro munosabatlarning muayyan tizimini tashkil etish usuli sifatida;

**To'rtinchidan,** buningsiz maktab o'quvchisining individga xos xususiyatlarini tarbiyalab bo'lmaydigan jarayoni sifatida maydonga chiqadi.

**Pedagogik muloqot deganda**, pedagog va o'quvchilar jamoasio'rtasida o'zaro birgalikdagi harakatning mazmunan axborot ayrboshlashdan, hamjihatlikni tashkil etishdan iborat tizimi, usullari va malakalari tushuniladi. Pedagog ushbu jarayonning tashabbuskori sifatida maydonga chiqadi va uni tashkil etadi va unga boshchilik qiladi.

1. Sinf - guruh bilan bo'ladigan muloqotni pedagog tomonidan modellash (loyixalash).
2. O'zaro ta`sir ettirishning dastlabki onlarida bevosta faol muloqot olib borish (kommunikativ hujum).
3. Pedagogik jarayon davrida muloqotni boshqarish.

Muloqotning har bir elementlarini muvaffaqiyatli bajarish uchun quyidagilarga e`tibor berish lozim:

- ✓ Darsga tayyorgarlik ko'rishda uning mazmunini oldingi dars mazmuni bilan bajarish va u faqat o'qituvchi qarashi bilan emas, balki o'quvchilar shaxsi tomonidan ham o'ylab tuzilishi kerak.
- ✓ Kommunikativ hujum o'z - o'zidan ma`lum, bunda o'qituvchi barcha o'quvchilarni tezda jalb qilish texnikasini bilish, dinamik ta`sir va o'zini salovatli qilib ko'rsatish usullarini egallashi zarur.
- ✓ Muloqotni boshqarish bosqichida o'quvchilar tashabbusini ma`qullash, diologik muloqot olib borish, sharoitiga moslab o'z fikriga tuzatish kiritish lozim.
- ✓ Va nihoyat muloqotni tahlil qilish, uni maqsad, mazmun va natijasini taqqoslashdir.

Tabiiyki o'qituvchi muloqotni o'quv-tarbiyaviy jarayonini tashabbuskori bo'lish zarur. Bunda:

- ✓ Muloqotning dastlabki qismida tezkor bo'lish;
- ✓ Biz sezgisini vujudga keltirish;
- ✓ O'quvchilarga ta`sir etishda shaxs aspektlarini kiritish;
- ✓ O'zini sinf haqida ijobiy fikrga ega ekanligini bildirish, sezdirish.
- ✓ O'quvchilarning ichki hissiyotlarini tushunish.

Pedagoglar tomonidan turli tipdagi rahbarlarning aniq ijtimoiy psixologikqiyofasi yaratilgan. Ularning jamoa bilan muloqot texnikasi doimo tahlil qilib boriladi. O'qituvchi ham rahbar sifatida bolalar faoliyatini boshqaradi. Ular bilan turli xil muloqotda bo'ladi.

Rahbarlik muloqoti 3 turga bo'linadi.

**Avtoritar uslub** - tarang tortilgan kamon. O'quvchilar bilan avtoritar munosabatda bo'luvchi o'qituvchilar odatda majburiy, qattiq talablarni qo'yishi (o'qituvchiga itoat etish, dars vaqtida asosan jim o'tirish, savollarga albatta qo'l ko'tarib, o'qituvchining ruxsati bilan javob berish, o'qituvchining ko'rsatmalarini so'zsiz bajarish va xakozo) orqali ish yuritadilar. Bunday o'qituvchilar o'quvchilarni qiziqish, layoqat, xoxish-istaklarini hisobga olmay, asosan o'quv rejasiga amal qiladilar. Darsni ham o'zlarining fikrlari va xoxish-istaklariga ko'ra rejalashtiradilvar. Dars jarayonida baxs, munozara uchun yetarli imkrniyat berilmaydi. Bu uslubda ishlovchi o'qituvchilar o'quvchilarning mustaqil fikrlashlari emas, balki o'rgatayotganlarini o'zlashtirishlari muhimdir. Shuning uchun dars davomida o'qituvchining o'zi gapiradi. Bu uslubda ishlovchi o'qituvchilar o'quvchining o'zigagina xos bo'lgan ba`zi psixologik xususiyaitlarini nazardan chetda qoldiradilar. Bunda o'quvchilar faoliyati, kim-kim bilan o'tirishi, ishlashini faqat o'qituvchi belgilaydi, ularning tashabusini o'ziga xos qiziqishlarini tan olmaydi. Asosan buyruq, ko'rsatma, yo'lanma berish va xayfsan e`lon qilish bilan o'quvchilarga ta`sir etadi. Xatto juda kam aytiladigan tashakkurnomalar ham buyruq va nafsoniyatiga tegadigan ohangda aytiladi: «Bugun yaxshi javob berding, sendan buni kutmagan edim?»

Bunda o'qituvchi o'quvchi xatosini ko'rganda uning ustidan kuladi, uning xatosini tuzatish yo'llarini ko'rsatmaydi. Bu usulda o'qituvchi boshliq ohangida gapiradi, boshqalar gapini qabul qilmaydi. Ularga qattiqqo'llik bilan boshqarish xususiyati xos. Bunday o'qituvchilarning o'quvchilari dars davomida mustaqil fikrlay olmaydigan, birovning ko'rsatmasiga ko'ra ish yuritadigan, o'ziga past baho beradigan kamgap, tortinchoq, ko'p hayojonlanadigan bo'lishlari yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'qituvchilarning avtoritar uslubda ishlash sabablari quyidagilardan:

1. O'qituvchi ko'p yillar davomida avtoritarizm zaminida tarbiya topganligi;
2. Ta`lim tizimida o'quvchilarga ko'proq akademik bilimlar berilishini ustuvor bo'lganligi;
3. O'qituvchilarda psixologik bilimlarning etishmasligi;

4. Boshqarish uslubida buyruqbozlik, aytganini qildirish va ortiqcha nazoratning singib ketganligi;
5. O’qituvchida o’quvchi shaxsi rivojini diagnostika qilish malakasining kamligi;
6. O’qituvchining salbiy individual psixologik xususiyati (o’z shaxsini ustun qo’yish, qattiqqo’llik, befarqlik va xakozo)

**Demokratik uslub** - bu uslubda ishlovchi o’qituvchilar o’quvchilar bilan bo’ladigan munosabatda ularning yosh psixik xususiyatlarini yaxshi bilishlari bilan ajralib turadi. Ularning fikriga ko’ra ta`limda o’quvchi shaxsini shakllantirish orqali bilim berish juda muhim. Bunday o’qituvchilar bolalarga nisbatanhox u intizomli, hox u intizomsiz, hox tez, hox bo’ladilar. Ularning fikricha bola sekin o’zlashtirgani yoki qaysarlik qilgani uchun to’laligicha aybdor emas. O’qituvchi bunday bolalar muvaffaqiyatiga ishonadi va o’quvchilarni ham ishontira oladi. Dars davomida o’quvchilar o’z-o’zini boshqaruviga ko’proq imkoniyat yaratadi va turli usullar orqali o’quvchilarnig mustaqil fikrlashlarini va mustaqil o’qish o’rganishlarini rivojlantirishga harakat qiladi. Demokratik uslubda ishlovchi o’qituvchi o’tiladigan dars rejasini o’zi hohlagancha tuzadi deb aytish qiyin, chunki ular uchun tasdiqlangan o’quv rejasidan tashqari o’quvchiarning qiziq, ehtiyoj va layoqatlari muhimdir.

Demokratik uslubda o’qituvchi jamoa fikri asosida ishlaydi. O’qituvchi faoliyat maqsadni har bir o’quvchi ongiga singdirishga intiladi, muhokamada barcha o’quvchilarni ishtirok etishlarini ta`minlaydi. O’z vazifasini faqat nazorat va tuzatishlar kiritishdan emas, balki tarbiyalashdan iborat, deb tushinadi. Har bir o’quvchi taqdirlanadi, unda o’ziga ishonch xislari tug’iladi. O’z-o’zini boshqarish rivojlanadi. Demokratik o’qituvchi har bir o’quvchining qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ish taqsimlashga harakat qiladi, faol o’quvchilarni taqdirlab boradi. Tashabbusga keng yo’l ochib beradi. Bunda o’qituvchi o’quvchilarga asosan maslahat, iltimos bilan muloqot o’rnatadi.

**Liberal (kelishuvli) uslub** - o’quvchilarni bebosh, tarbiyasiz, yalqovlikka olib boruvchi uslubdir. O’qituvchi o’quvchilar hayoti bilan qiziqmaydi, unga aralashmaydi, jonbozlik ko’rsatmaydi, masalalarni hal qilishga e`tiborsizlik bilan qaraydi. Bir - biriga qarama - qarshi fikrlarni ham ma`qulayveradi. Bunday o’qituvchiga ishonmaydilar hurmat qilmaydilar.

O’tkazilgan tadqiqotlar natijalari va yuqorida aytilgan fikrlarga ko’ra o’quvchilar bilan munosabatda faqat demokratik uslubni qo’lovchi o’qituvchilarning o’quvchilarida bugungi davrimiz va kelajak talab qilayotgan xususiyatlar shakllanishi mumkin.

Shunday qilib, pedagogik muloqotni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- ✓ O’zaro ijodiy faoliyatga qiziqtirishga asoslangan muloqot;
- ✓ O’zaro do’stlikka asoslangan muloqot;
- ✓ Muloqot - masofa;
- ✓ Muloqot - qo’rqitish;
- ✓ Muloqot - xazil- mutoyiba;

Mulqot madaniyati boshqalarni tushunishga bo’lgan ehtiyoj va qobiliyatni shakllantirish, o’z - o’zini tushunishga ehtiyoj tug’dirishdir.

Muloqotdagi asosiy kamchiliklar:

- ✓ Ehtiyojsizlik, shaxsiyatparastlik, suhbatdoshini ortiqcha majburlash;
- ✓ Passivlik, o’zini yuqori qo’yish;
- ✓ Xaddan tashqari jonbozlik ko’rsatish.

Jismoniy rivojlanish shaxsning ijtimoiy maqomi, moddiy ta`minot darajasi muloqot psixologiyasi ta`sir ko’rsatadi.(Buni o’ylab ko’ring, munozara, bahs uchun mavzu bu).

**O’qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati va psixologiyasi**

Muloqot shaslararo munosabatlarning shunday ko’rinishidirki, uning yordamida insonlarning bir-birlari bilan o’zaro munosabatga kirishadilar. O’zaro axborot almashinadilar bir-birlariga ta`sir o’tkazadilar.

Shu sababli muloqot ijtimoiy-psixologikhodisa sifatida turmushning barcha sohalarida ishtirok etib, xamkorlik faoliyatining moddiy ma’naviy emosional qirralarining ehtiyoji sharoitida yuzaga keladi.

Pedagogik muloqot-pedagogik ta`sirning ajralmas sifati bo’lib, bu o’qituvchi va o’quvchilarning ta`lim tarbiya jarayonidagi professional muloqot bo’lib, unda ma`lumot almashinadi va o’qituvchilarga o’quv-tarbiyaviy ta`sir o’tkaziladi. Bunda ikki yoqlama muloqot yuzaga kelishi lozim. Uning asosida esa o’zaro xurmat va ishonch yotadi. Pedagog o’quvchilarbilan muloqotga kirishish jarayonida ulardan xurmat va ishonchni talab etadilar. Bu pedagogik ta`sirsamarali yo’li bo’lib, tajribali pelagogo’quvchini o’z-o’zini xurmatlashga asoslangan xolda munosabatlarni tashkil etadilar va shuorqli munosabatlarni amalga oshiradilar.

Muloqotning o’ziga xos 3 ta darajalari farqlanadi. Bular:

1. Makrodaraja (katta) - insonlarbilanmuloqotqilishbarchaaxloq-odobme’yorlarigasuyanganxoldaamalgaoshiriladi.
2. Mezo darajada (o’rta) - muloqot ta`lim mavzu asosida kechadi (masalan,??? Mavzudan chekinmaslik)
3. Mikro daraja (kichik) - muloqotning oddiy shakllari, savol-javob tarzida yuz beradi.

Muloqotning ko’yidagi turlari mavjud: shaxslararo (inson-inson), shaxsiy-guruxiy (gurux-gurux), ommaviy komunikatsiya (radio, televidenie, ro’znoma, jurnallar). (Davletshin.M.S. Umumiy psixologiya T.2002 yil. 62 bet).

Pedagogik muloqotda ijodiylik quyidagilarga bog’liq:

- o’quvchilar bilan o’zaro birgalikda harakat qilish;
- o’quvchiga ta`sir qilishda uning xulq-atvorini boshqarish, o’zaro harakatning turli yo’llarini qo’llash;
- o’qituvchining o’z-o’zini boshqara olishi;
- O’zaro munosabatlar jarayonidagi ijodiylik harakatini saqlay bilish.

**Nazorat uchun savollar:**

1. “Kompetentlik” tushunchasiqandayma’nonianglatadi?
2. Kasbiykompetentliknima?
3. Kompetentlikqandayholatlardanamoyonbo‘ladi?
4. Kasbiykompetentliknegizidaqandaysifatlaraksetadi?
5. Ijtimoiykompetentlikdegandanimanitushunasiz?
6. Maxsuskompetentliknegizidaqandaykompetentliklarko‘zgatashlanadi?
7. Psixologikkompetentlikningmohiyatinimadaniborat?
8. Metodikkompetentlikdaqandayjihatlaraksetadi?
*O’zini tarbiyalanuvchi holatiga qo’ya bilish, atrof-muhitga nisbatan uning qarashini ko’ra bilishga intilish*

*Bo’lib o’tgan voqea-hodisalarga, tarbiyalanuvchilarga nisbatan yangicha qarash qobiliyati*

# 6-MA’RUZA

## O’QITUVCHI FAOLIYATIDA PEDAGOGIK QOBILIYATLAR

Reja

1. Pedagogik qobiliyat haqida tushuncha.
2. Pedagogik qobiliyatlar klassifikatsiyasi.
3. O’qituvchi mahoratini shakllanishida qobiliyatlarning muhimligi.
4. Bo’lajak pedagoglarda pedagogik qobiliyatlarni tarkib toptirish.

Pedagogik qobiliyatlar, deb ataladigan qobiliyatlar shaxsning aqliy tomonini ham, emotsional- irodaviy tomonini ham xarakterlab beradi. Bu sifatlarning hammasi biri- biri bilan hosil qiladi.

Psixologiyada qobiliyatlarga shunday ta`rif beriladi:

**Qobiliyatlar-** shaxsning mazkur faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko’nikma va malakalarni egallashdinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo’ladigan individiual- psixologik xususiyatdir.

Pedagogik psixologiyada o’qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning tutgan o’rnini ilmiy izohlab berishga oid samarali tadqiqotlar olib boriladi.

Yirik psixolog S.L.Rubinshteyn ta`kidlab o’tganidek, pedagogik jaroyon o’qituvchi- tarbiyachining faoliyati tariqasida rivojlanuvchi bola shaxsini shakllantiradi, bu esa pedagogning o’quvchi faoliyatiga naqadar rahbarlik qilishga yoki aksincha, unga ehtiyoj sezmasligiga bog’liq. Bola shaxsning rivojlanishida o’qituvchining roli benihoya muhimdir, chunki u ta`lim va tarbiya jaroyoning

tashkilotchisi vazifasinibajaradi. Shu bois, hozirgi sharoitda o’qituvchining tashkilotchilik qobiliyatiga nisbatan yuksak talab qo’yiladi, shuning uchun ijtimoiy- tarixiy tajribalarning boyligi ehtiyojlar ko’lamini ortishiga bevosita bog’liq.

70-80 yillarda o’qituvchining xarakter xislatlari, pedagogik qobiliyatlari, unda tarbiyachilik mahoratini tarkib toptirish shartlari chuqur o’rganildi.

Jumladan, rus olimasi N.V.Kuz’mina o’qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning o’rni va ularni tarkib toptirishga oid qator ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan. U o’z tadqiqotlarida pedagogik qobiliyatlarni.

**Gnostik (bilishga oid)**

**Proektiv (oldindan rejalashtirishga qaratilgan)**

**Konstruktiv, tashkiliy va kommunikativ** turlarga ajratib ularning, har biriga chuqur psixologik tasnif bildiradi. N.V.Kuz’mina pedagogik qobiliyatning muhim alomatlari qatoriga kuzatuvchanlikni ham kiritadi, o’qituvchining bu hislari o’quvchining ichki kechinmalari, his- tuyg’ulari kabi omillarni aniqlashga xizmat qiladi.

*O’qituvchida kuzatuvchanlikning paydo bo’lishi natijasida u diagnostik sifatni vujudga keltiradi.*

Tadqiqotchi A.I. Shcherbakov fikriga ko’ra, pedagogik faoliyat- bu o’qituvchi oldiga jiddiy talablar qo’yadigan murakkab psixologik aktdir. Pedagogik faoliyat o’qituvchini chuqur va puxta bilimga, pedagogik qobiliyatiga, mustahkam xarakterga, yuksak ma`naviyatga ega bo’lishini taqazo qiladi. I.A.Shcherbakov o’qituvchi shaxsi 6 ta kasbiy- tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta`kidlaydi:

1. Yuksak saviyadagi bilim va madaniyat
2. Yo’nalishning aniq ifodalanganligi.

3. Yuksak axloqiy hislarning mavjudligi.
4. Yuqori darajada yuzaga keluvchi faollik va barqaror mustaqillik.
5. Qat`iy va silliq xarakter.
6. Pedagogik qobiliyatlar.

Yirik olim F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi:

1. Didaktik qobiliyatlar.
2. Akademik qobiliyatlar.
3. Pertseptiv qobiliyatlar.
4. Nutq qobiliyatlari.
5. Tashkilotchilik qobiliyati.
6. Avtoritar qobiliyatlar.
7. Kommunikativ qobiliyatlar.
8. Pedagogik xayolot.
9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati.

F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni tarkib toptirish bosqchilari, xususiyatlari va xossalari to’g’risida mukammal ma`lumotlar beradi. Ta`lim va tarbiya jaroyonini takomillashtirishda pedagogik qobiliyatlarning roli tajriba materiallariga asoslanib sharhlab beriladi.

Yirik o’zbek olimi S.R. Rajabov va uning yuzlab shogirdlarning ishlari ham o’qituvchining pedagogik va psixologik xususiyatlarini o’rganishiga.

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, bizningcha, o’qituvchining pedagogik qobiliyatlarini qo’yidagicha klassifikatsiya qilish mumkin.

1. **Didaktik qobiliyat-** bu oson yo’l bilan murakkab bilimlarni o’quvchilarga tushuntira olishdir.. Bunda o’qituvchining o’quv materialini o’quvchilarga tushunarli qilib bayon yetishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi, o’quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga

qiziqish uyg'ota olishi ko'zda tutiladi. O'qituvchi zarurat tug'ilgan hollarda o'quv materialini o'zgartira, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz, noaniq narsani tushunarli qila oladi.

2. **Akademik qobiliyat-** barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi o'z fanini o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chukurroq biladi, o'z fani sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fan- texnika, ijtimoiy- siyosiy hayotga doir qiziqishlari bilan ko'p narsalarni o'rganib boradi.

3. **Pertseptiv qobiliyat-** qisqa daqiqalarda o'quvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o'qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo'lmagan tashki belgilar asosida o'quvchi ruhiyatdagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. **Nutqiy qobiliyat-** ixcham, ma`noli, oxangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq; shuningdek, o'qituvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilishi . Qobiliyatli o'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan, ma`qullayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga karatilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar ifodasi o'quvchiuchun aniq, soda, tushunarli bo'ladi.

5. **Tashkilotchilik qobiliyati-** sinf- guruhi yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste`dodi. Tashkilotchilik o'quvchilarni xilma- xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan o'quvchilar jamoasini uyushtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo'lsa,ikkinchidan, o'z shaxsiy ishini to'g'ri uyushtirish qobiliyatidir.

6. **Obro'ga ega bo'lishlik qobiliyati-** o'zining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql- farosatli, mustahkam irodasi bilan obro' orttirish uquvchanligi.

Fanda bu qobiliyat turi- avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi. Obro’ga ega bo’lish o’qituvchi shaxsiy sifatlarning butun bir kompleksiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga ( dadililigi, chidamliligi, qat`iyligi, talab talabchaligi va xakazo) shuningdek, o’quvchilarga ta`lim hamda tarbiya berish ma`suliyatini his etishga, bu ishonchni o’quvchilarga ham etkaza olishiga bog’liq bo’ladi.

**Qaysi o’qituvchi hurmatga sazovar?**

| | |
|---|---|
| 1. O’qituvchimizningzo’rlamasdanvabaqirmasdantalab kilaolishdekajoyibxislatibor. | 1. O’zi yaxshi odam-u lekin juda yumshoq-da, uni aldash xech gap emas. |
| 2. Biz uni qattiqqo‘l va talabchan bo‘lganligi uchun juda yaxshi ko‘ramiz. U hamisha osoyishtalik bilan ta’sir etadi | 2. Uning qanday odam ekanligini tushunib bo’l maydi: bir qarasang qattiqqo‘l bir qarasang osoyishtalikva muloyimlik bilan talab qiladi, biroqShunday ta`sir etadiki, ungachidayotg animizni bilmasdi. |
| 3. Ximiya o’qituvchimiz hamishaxotirjam o’zini tutgan | Biz P.I ning |

| | |
|---|---|
| odam va shu xislati bilan butun sinfgaqattiq ta`sir ko’rsatadi | ketganidan judaxursand miz. U bizni baqirib-chaqirib,buyruk berishlar bilan qo’lga olmoqchiedi, ammo unga majburan quloq solmay ilojing yo‘q. |
| 4. Har qanday sharoitda ham u o’z obro’sining saqlanishiga erishadi | 4. Biologiya o’qituvchisining obro’yinisaqlamay ko’r-chi |

**7. Kommunikativ qobiliyatlar-** muomala va mulokot o’rnata olish, bolalarga arlashish qobiliyati, o’quvchilarga to’g’ri yondoshish yo’lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqati nazardan samarali o’zaro munosabatlar o’rnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

**8. Psixologik tashxis (diagnoz) qobiliyati-**isnonning kelajagini oqilonatasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu o’z harakatlarning oqibatlarini oldindan ko’rishda, o’quvchining kelgusida qanday odam bo’lishi xakidagi tasavvur bilan bog’liq bo’lgan shaxsni tarbiyalab etishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarning taraqqiy yetishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan

maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizga tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bog'liq bo'ladi.

**9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati-** bir necha ob`ektlarga bir davrning o'zida o'z munosabatini bildirish. O'quvchi, o'qituvchi uchun diqqatning barcha xususiyatlari- xajmi, uning kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilina olishi va ishga solinishning taraqqiy etgan bo'lishi muhimdir.

Qobiliyatli, tajribali o'qituvchini materialni bayon qilish mazmunini va shaklini, o'z fikrini ( yoki o'quvchi fikrini) diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o'quvchilarni o'z diqqat-e`tiborida tutadi, toliqish, e`tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzilish hollarini e`tibordan qochirmaydi, nihoyat o'z shaxsiy xatti- xaraktlarini ( mimikasi, pantomimikasi, yurish- turishni) ham kuzatib boradi.

Tajribasiz o'qituvchi ko'pincha mavzuni bayon etilishga berilib ketib shu vaqt ichida o'quvchilarni e`tibordan chetda qoldiradi, nazorat qilmay qo'yadi, bordi-yu, o'quvchilarni diqqat bilan kuzatishga harakat qilsa, bayon qilish kalavasini yo'qotib qo'yadi.

**10. Konstruktiv qobiliyat-** o'quv- tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat o'quvchi shaxsning rivojini loyihalashga, o'quv- tarbiya mazmunini, shuningdek, o'quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

**11. Gnostik qobiliyat-** tadqiqotga layoqatlilik bo'lib, o'z faoliyatini, bu faoliyat jaroyonini va uning natijalarini tekshirish hamda o'rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyatidir. Bu qobiliyat o'quvchi shaxsning rivojini loyihalashga, o'quv- tarbiya mazmunini, shuningdek, o'quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

**12. Gnostik qobiliyat-** tadqiqotga layoqatlilik bo'lib, o'z faoliyatini, bu faoliyat jaroyonini va uning natijalarini tekshirish hamda o'rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyatidir.

Shuningdek zamonaviy o'qituvchi o'zida aqli donishlik qobiliyati, iymon-e`tiqodga, faol hayotiy pozitsiyaga yo'naltirish qobiliyati va tashabbusga, ijodga ilhomlantirish kabiqobiliyatlari bo'lishi zarurligi ko'zda tutilmoqda.

Pedagogik qobiliyatlarni har tomonlama o'rganish qobiliyatlar shaxsning aql-idroki, hiya- tuyg'usi va iroda sifatlarning namoyon bo'lishidan iborat ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogik qobiliyatlar umumiy qobiliyat: masalan, adabiy va ilmiy ijod qilish, loyihalash, qobiliyatlari bilan bog'langan. Ular o'qituvchi faoliyatining samaradorligini oshiradi. Bunday o'qituvchilar o'z o'quvchilarini (talabalarni)ana shu faoliyatga jalb qila borib, ularga ta`lim va tarbiya berishda katta muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar.

Pedagogik qobiliyatlar xarakter xislatlari bilan bog'langan. Uyushqoqlik, qat`iylik, haqqoniylik pedagogik faoliyat darajasining ortirishga olib keladi, aksincha, uyushmaganlik, ko'ngilchanlik, adolatsizlik pedagog faoliyati natiajalarini pasaytiradi.

Har bir o'qituvchi o'ziga xos individiual- psixologik xislatlarga ega bo'ladilar. Ulardan ba`zilari harakatchanroq, boshqalari sustkashroq,ba`zilari qattiqo'lroq, boshqalari yumshoqroq bo'ladilar. Bu xususiyatlarning hammasi juda yaxshi xususiyatlar bo'lib, ulardan foydalanishning ahamiyati katta. Bundan o'qituvchiga his- tuyg'ular, emotsiyalar yot narsa bo'lishi kerak, degan ma`no kelib chiqmaydi, aksincha u quvonishni ham, g'azablanishi ham, qayg'uga tushishi ham, xafa bo'lishi ham mumkin va lozim. Bu erda gap o'qituvchining qandaydir bir anjozadagi (qolipdagi) shaxsga barovlashtirish zarurligi to'g'risida emas, balki uning o'z individual sifatlaridan ustalik bilan foydalanishi, o'zida shaxsning zarur xislatlarni tarkib toptirishi, o'z kamchiliklariga barham berishi to'g'risida boradi.

**Nazorat savollari:**

1. Pedagogik qobiliyatlar nima?

2. O’quvchilik davringizda qaysi o’qituvchilar sizga nima uchun katta ta`sir etganini eslang.
3. Pedagogik qobiliyatlarni aniqlashga oid olib borilgan ilmiy tadqiqotlar haqida nima bilasiz?
4. Pedagogik qobiliyatlarning qanday turlarga bo’lish mumkin?
5. Psixologik tashxis qobiliyatini tavsiflang.
6. Pedagogning obro’ga ega bo’lish qobiliyatini qanday tarkib toptirish mumkin?

**Adabiyotlar:**

1. O’zbekpedagogikasianatologiyasiI-IIt (tuzuvchilarK.Xoshimov,S.Ochil..) T.O’qituvchi 1995-2000 y
2. K.Xoshimov. S.Nishanova, Pedaogigka tarixi,Tosh. O’qituvchi.1996 y.
3. A.Avloniy. Turkiy guliston yohud axloq. Tosh. O’qituvchi 1993
4. A. Navoiy, Mahbub ul- qulub». Toshkent. Ғ.Ғulom nashr. 1983y

## 7-MA’RUZA.

## PEDAGOGIKFIKRTARIXIVAMAKTABAMALIYOTIDAO’QITUVCHIMAHORATIMASALALARI

Reja
1. Engqadimgidavrlardadastlabkipedagogikfaoliyatningyuzagakelishitarixi.
2. Chetelpedagogikasitarixidao’qituvchilikkasbito’g’risidagig’oyalar.
3. Sharq mutafakkirlarning ustoz- mudarrislar haqidagi qarashlar.
4. Rus pedagogikasida o’qituvchilik mahorati masalalari.
5. Hozirgi zamon pedagogikasida o’qituvchi mahoratini o’rganilishi.

Pedagogika tarixi fani qadim zamonlardan tortib, to hozirgi kungacha bo’lgan turli tarixiy davrlarda tarbiya, maktab va pedagogika nazariyalarining taraqqiyotini davrlar talabi asosida o’rganib keldi. Har bir ijtimoiy tuzum, uning kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayoti va turmush darajasi fan va madaniyat

taraqqiyoti bilan bog'liqdir.

Tarixdan ma`lumki, Qadimgi Sharq quldorlik davlatlarida, Gretsiya va Rimda dastlabki oila va ijtimoiy tarbiya tizimlari paydo bo'la boshladi, dastlabki pedagogik nazariyalar vujudga keldi.

Qadimgi Gretsiyadagi Sparta davlatida o'ziga xos tarbiya tizimi tarkib topdi. Ular o'g'il bolalar uchun tarbiya muassasalari- **agellalar**ni tashkil etdilar. Agellalarda tarbiya ishiga davlat tomonidan maxsus ajratilgan kishilar, **pedonomlar** rahbarlik qildilar. Muassasada asosan bolalarning harbiy- jismoniy tayyorgarligiga e`tibor berilar, ta`lim berish va hhisobga o'rgatish bilan cheklanar edi.

Ancha rivojlangan quldorlik davlati Afinada esa bolalar va o'smirlarga ta`lim-tarbiya berishga katta ahamiyat berilardi. Afinaliklar insonning aqliy, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishini birga qo'shib olib borishga harakat qilardilar, chunki ular ham jismoniy, ham ma`naviy jihatdan barkamol kishilarni bekamu-ko'st odam, deb hisoblardilar. Sinfiy xarakterga ega maktablarda quldorlarning bolalargina o'qishar edi. 7 yoshdan boshlab bolalar grammatist va kifarist maktabida o'qir edilar.Grammatist maktabda oqituvchilar – didasklar – bolalarni oqish, yozish, va sanoqqa orgatar edi. Shu tariqa dastlabki pedagoglik kasbi yuzaga kela boshladi.

Pedagogika ham usha vaqtdagi yagona fan- falsafaning bir qismi sifatida rivojlandi va antik mutafakkirlar: Suqrot, Platon, Demokrit, Aristotel' va boshqalarning ta`limotlarida o'qituvchii faoliyati va uning notiqlik san`ati to'g'risidagi qarashlari yuzaga kela boshladi.

Faylasuf va notiq bo'lgan Suqrot ( eramizdan avvalgi 469-399 yillar) jamoat joylarida ahloqqadoir masalalarda suhbatlar o'tkazar, tinglovchilarni savol va javoblar yo'li bilan «haqiqat» ni o'zlari fikryuritib topishga undar, ularga hech qanday qoida va xulosalar aytmas edi. Suhbatning bu metodi «Suqrot metodi» deb

atalib, keyingi davrlar metodikasida suhbatni «fikr qo'zg'atuvchi savollar metodi» yo'li bilan o'tkazish kelib chiqdi.

Qadimgi grek faylasufi Platonning fikricha bolalar 3 yoshdan boshlab 6 yoshgacha davlat tomonidan tayinlangan tarbiyachilar rahbarligida turli o'yinlar vositasida ijtimoiy tarbiya olishlari zarur deb hisoblanardi. 7 yoshdan 12 yoshgacha davlat maktablarida o'qitilib, o'qituvchilar tomonidan asosan bolalarga o'qish, yozish, hisob, musiqa va ashula o'rgatilishi lozim edi.

Mark Fabiy Kvintilian eng mashhurRim notig'i va pedagogi bo'lib, ritorlar maktabning asoschilaridan biri edi. O'z maktabning tajribalari va antik dunyodagi pedagogik fikrlar sohasidagi yutuqlar asosida Kvintilian birinchi maxsus pedagogik asar «Notiqni tarbiyalash haqida»ni yaratdi. Uning fikricha, ota- onalar, tarbiyachi va enagalardan bolaning juda ham ta`sirchanligini, unda yaxshi va yomon odatlar oson o'rnashib qolishini doimo yodda tutishlarini talab etdi. Bularni pedagoglarni tanlashda ham e`tiborga olish kerak, dedi.

Kvintilian o'qituvchi o'zi tarbiyalayotgan har bir bolaga ehtiyotlik bilan va e`tibor berib muomala qilish, o'qituvchining o'zi o'qimishli bo'lishi, bolalarni sevishi, o'zini yaxshi tuta bilishi, bolalarni bo'lar- bo'lmasga mukofotlayvermasligi yoki jazolay bermasligi, o'z shogirdlari uchun o'rnak bo'lishi va ularni sinchkovlab o'rganilishi lozim, deb hisoblaydi.

Buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1676) o'z davridagi iste`dodsiz, ma`lumotsiz o'qituvchilarni qattiq tanqid qildi. O'qituvchilikni «er yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb» deb hisobladi. Bu o'qituvchiga nisbatan yangi progressiv qarash edi, chunki o'sha davrda o'qituvchilik kasbiga hurmat bilan qaralmas edi. Komenskiy aholining o'qituvchiga hurmat bilan qarashini talab yetishi bilan o'qituvchining o'zi jamiyatda muhim vazifani bajarilayotganligini tushunib olshdi va o'z qadr-qimmatini yaxshi bilib olishi lozimligini uqtiradi.

Komenskiyning fikricha:

*O'qituvchi- sof vijdonli, ishchan, sabotli o'quvchilarga o'zi singdirishi lozim bo'lgan fazilatlarning jonli namunasi bo'lishi, keng ma`lumotli va mehnatsevar kishi bo'lishi . . .*

U o'z ishini behad sevishi, o'quvchilarga bamisoli otalardek muomala qilishi, ularda bilimga havas uyg'otish zarur. O'zi namuna ko'rsatib o'quvchilarni o'ziga ergashtirish o'qituvchining birinchi vazifasi va dindorlik o'qituvchining eng muhim xislatlaridan biridir.

Iogann Fridrix Gerbart Germaniyada tug'ilib, dastlab lotin klassik maktabida, so'ngra Ien universitetida tahsil oldi. 1802 yildan boshlab Gerbart universitetida professor bo'lib ishlay boshladi. U bu universitetlarda o'zining pedagoglik faoliyatini kengaytirib yubordi: psixologiya va pedagogikadan ma`ruzalar o'qidi, o'qituvchilar tayyorlash seminariyalariga rahbarlik qildi.

Gerbart o'zining «Tarbiya maqsadlaridan kelib chiqqan umumiy pedagogikaga tatbiq qilish to'g'risidagi xatlar» (1831) degan kitoblarida pedagogika va o'qituvchi faoliyatiga oid g'oyalarnikeng bayon etdi.

Atoqli nemis pedagogi Adol'f Disterveg pedagoglik sohasida samarali ish olib borish bilan bir vaqtda adabiy va metodik ishlarni ham zo'r muvaffaqiyat bilan olib bordi. U «Nemis o'qituvchilarini o'qitish uchun qo'llanma» (1835) degan kitobini nashr qildirdi. Disterveg o'qituvchilarga nisbatan qo'yiladigan talablar tizimini quyidagicha ifodaladi: O'qitish chog'ida bolalarning tashabbuskorligini o'stirish, ularni bilimlar bilan qurollantirish o'qituvchi rahbarlik rolini o'ynagandagina mumkin bo'ladigan ishdir. U ta`limning muvaffaqiyatli bo'lishi oqibat natijada darslik yoki metodga emas, balki o'qituvchiga bog'liq deb ta`kidlaydi. Distervegning fikricha yaxshi o'qituvchi o'z fanini mukammal egallab olgan bo'lishi hamda o'z kasbini va bolalarni sevishi kerak. Dars chog'ida hamma bolalar tetik bo'lib turishi, o'qituvchi g'ayrat bilan dars berib, o'quvchilarning aqliy kuchini uyg'otishi, ularning irodasini mustahkamlashi, ularning xarakterini

tarkib toptirishi kerak. O'quvchilar o'zlarining olg'a borayotganliklarini hamisha sezib turishlari lozim.

Disterveg o'qituvchining mustahkam xarakter iva o'tkir iroda kuchi ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta`kidlaydi. O'qituvchi qattiqqo'l va talabchan bo'lishi bilan birga, adolatli bo'lishi ham kerak, faqat shundagina u o'z o'quvchilari orasida obro' qozonishi mumkin. O'qituvchi haqiqiy inson, mustahkam e`tiqodli bo'lishi lozim deydi.

.. yomon o'qituvchi haqiqatni aytib qo'ya qoladi, yaxshi o'qituvchi esa haqiqatni topishga o'rgatadi...

Sen o'z ma`lumotingni oshirish ustida ishlashni davom ettirganingdagina boshqalarga ta`lim berishga layoqatli bo'lib qola berasan...

Disterveg o'qituvchilarga o'z bilimlarini qanday qilib oshirishlari to'g'risida bir qancha qimmatli maslahatlar beradi, o'qituvchilarga o'zlari o'qitayotgan fanga taalluqli asarlarni birinchi navbatda o'qishni tavsiya qiladi, shuningdek o'qituvchi tarix va adabiyotni bilishi, pedagogika, psixologiya va metodikaga oid chiqayotgan yangi asarlarni kuzatib borishi kerak, deb ta`kidlaydi. Disterveg o'qituvchilarni amaliy pedagoglik mahorati va malakalari bilan qurollantirishga katta ahamiyat berdi.

Shaxs tarbiyasida o'qituvchining o'rnini nihoyatda katta ekanligi ma`naviy merosimiz durdonalari bo'lmish Kaykovus, Abu nasr Farobiy, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad Yasavviy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy asarlarida markaziy o'rinni egallaydi. Ular bolani to'g'ri tarbiyalash, uning shaxsini shakllantirishda o'qituvchi mehnatning axamiyati, uning mas`uliyati masalasida qimmatli fikrlar qoldirganlar.

Sharqda « Shayx ar- Rais» nomi bilan mashhur bo'lgan allomalardan biri Abu Ali Ibn Sino o'qituvchi mahorati haqida fikr yuritar ekan, quyidagilarni eslatib o'tadi:

- bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;

- berilayotgan bilimning talabalar qanday o'zlashtirib olayotganina e`tibor berishi;
- ta`limda turli metod va shakllardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- aqliy darajasiga mos ravishda berishi;

har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otishi darajasida bo'lishiga erishishi zarur.

Ma`lumki, Sharq Uyg'onish davrida inson muammosi ma`naviyat sohasidagi asosiy masala bo'lgan. Bu davrda yaratilgan ta`limiy- axloqiy qarashlar asosi islom dinining umuminsoniy va o'ziga xos haq-huquqlariga, talab va tamoyillariga borib taqaladi.

Farobiyning «Fozil odamlar shahri», A. Navoiyning «Mahbub- ul qulub» (Ko'ngillarning sevgani), Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u- bilig» (Saodatga eltuvchi yo'l), Kaykovusning «Qobusnoma» (Shamsul- maoliy Qobus- hukmdor, shoir bo'lgan), Ahmad Yugnakiyning «Hiabbatul- haqoyiq» (Haqiqatlar sovg'asi), Sa`diyning «Guliston», Jomiyning «Bahoriston» asarlari ta`limiy- didaktik asarlar jumlasiga kiradi.

Mutafakkirlarning o'z ishlaridao'qitish va ta`lim- tarbiyaga e`tibori natijasida, pedagogika va didaktika masalalariga qiziqish orta bordi. Aniq fanlarni o'qitishining uslubi masalalariga, ayniqsa, e`tibor kuchaydi. Mutafakkirlar ta`lim-tarbiyaga oid fikrlarda inson kamoloti muammosini baxt- saodatga erishish uchun bog'lab talqin etdilar.

Masalan qomusiy bilimlar sohibi, buyuk mutafakkir A. Navoiy fan va san`atning turli sohalari bilan birga ta`lim- tarbiyani takomillashtirishga ham katta e`tibor bergan edi.U o'zining «Xamsa», «Mahbub-ul-qulub» kabi yirik ta`limiy-axloqiy asarlari bo'lmish «Munojot», «Vaqfiya», «Majolisun nafois», «Muhokamatul- lug'atayn» kabilarda tarbiyaga oid o'z qarashlarini ifodaladi.

A. Navoiy o'zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta`lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ta`limiy- axloqiy asarlarda esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo'llari, usullarini bayon etdi.

A. Navoiy ilmni inson kamoloti uchun eng zarur fazilatlardan deb biladi. U o'zining «Ixlosiya» madrasasi yonida maktab ochib, o'z vaqfidan mablag' ajratgan. Madrasada ta`lim olayotgan har bir talabadan ilmda qattiq intizomga rioya qilish talab etilgan.

Buyuk alloma ilm olish tamoyillarini o'z davrida to'g'ri ifodalab hatto ta`lim tizimini belgilab beradi: A. Navoiy maktab, madrasalarda o'qish, olim, hunarmand, san`atkorlarga shogird tushib yoki mustaqil holda ilm olish imkoniyatlaridan foydalanishni talab etadi.

A. Navoiy yoshlarga chuqur bilim berishda muallimu- mudarrislar hamda ustozu- murabbiylarning o'zlariham bilimli va tarlbiyali bo'lishi zarurligini uqtiradi. U nodon, mutaassib, johil domlalarni tanqid etadi va o'qituvchi ma`lumotli, o'qitish yo'llarini biladigan muallim bo'lishi zarur, deydi.

A. Navoiy «Mahbub-ul-qulub» asarida maktabdorlar haqida fikr yuritar ekan, ularning o'ta qattiqo'l, johil va ta`magirliklarini qoralash bilan birga, o'qituvchi mehnatining og'irligi, murabbiylik haqqini xolisona baholaydi.

*«Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima etsin.*

*Shunisi ham borki, u to'da fahm- farosati ozlar bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa, ham, yosh bolalarga uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi.*

*Haq yo'lida kim senga bir harf o'rgatmish ranj ila,*

*Aylamak bo'lmas ado oning haqqini yuz ganj ila.*

A. Navoiy o'qituvchining hurmatini qanchalik joyiga qo'ysa, unga bo'lgan talabni ham shunchalik oshiradi. Ayniqsa, madrasada mudarrislarining bilimli, fozil va dono, kamtar, ma`naviy, pok bo'lishlarini talab etadi:

*mudarris kerakki, g'arazni mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik bilan dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap- so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa,...*

*Yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki o'zini olib bo'lib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni qilmoq undan sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir.*

A. Navoiy o'zi barpo etgan «Ixlosiya» madrasasida o'z zamonasining etuk mudarrislarini yig'di va ilm izlagan talabalar ana shu madrasalarda ilm peshvolaridan tahsil oldilar.

Demak A. Navoiy har bir yoshning aqliy kamolatga yetishishida ilmu fanning ahamiyatini ko'rsatib o'tish bilan birga jamiyat taraqqiyotining asosi sanalgan ilm ahli, ilmni tarqatuvchi olimu- fozillarni hurmat qilishga va ularning turmush darajasini yaxshilash masalalariga ham e`tibor qaratdi.

XVII-XVIII asrlarda faoliyat ko'rsatgan madrasalar: Buxoroda Shayx Jalol madrasasi, Domla Tursunjon madrasalari, «Devonbegi» madrasasi, Xivada Arabmuhammad madrasasi, Muhammad Rizobek madrasasi.

Taniqli o'zbek pedagogi va olimi A. Avloniy 1878 yil 12 iyulda Toshkent shahrida tug'ildi.XX asr boshlarida O'zbekistonning ijtmoiy- siyosiy hayotida va pedagogik fikrlar rivojida A. Avloniy alohida o'rin egalladi, butun faoliyati davrida u o'z xalqiga xizmat qiladigan komil insonni etishtirish, uning ma`naviyatini shakllantirishga alohida e`tibor berdi.

U 1917 yil to'ntarishgа qadar Turkistonda juda katta ijtmoiy- ma`rifiy ishlarni amalga oshirgan jadidlar harakatining ko'zga ko'ringan namoyondalaridan edi. A. Avloniy ziyoli kishilar bilan hamkorlik teatr- tomoshalari va matbuotdan tushgan mablag'larga dunyoviy ilmlarni o'qitadigan «Usuli jadid» maktabini ochdi va bu maktablarda xalq bolalarini o'qitdi.

A. Avloniy 1907 yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagi maktablar ochdi. Maktablardagi o’quv asbob-anjomlarni o’zgartirdi, o’z qo’li bilan parta va doskalar yasadi. U o’z maktablari uchun 4 qismdan iborat:

1. «Adabiyot yoxud milliy she`rlar» (1912y)
2. «Birinchi muallim» (1912y)
3. «Turkiy guliston yohud axloq» (1913y)
4. «Ikkinchi muallim» (1915y)
5. «Maktab gulistoni» (1917y)

Kabidarslikvao’qtishkitoblariyaratdi. A. Avloniyningpedagogikagaoidasarlariorasida «Turkiygulistonyoxudaxloq» asari XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o’rganish sohasida katta ahamiyatga moliqdir.

O’zbek pedagogikasi tarixida A. Avloniy birnchi marta pedagogika «Peologiya», ya`ni bola tarbiyasining fani demakdir» deb ta`rif berdi. Bunday ta`rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi. U bola tarbiyasini nisbiy ravishda qo’yidagi to’rt bo’limga ajratadi:
«Tarbiyaning zamoni»
«Badan tarbiyasi»
«Fikr tarbiyasi»
«Axloq tarbiyasi»

«Tarbiyaning zamoni» bo’limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota- ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta`kidlaydi. A. Avloniy badan tarbiyasi masalasida bolani sog’lom qilib o’stirishda ota- onalarga murojaat qilsa, bolani fikr tomondan tarbiyalashda o’qituvchilarning faoliyatlariga alohida e`tibor beradi.

Bolalarda fikrlash qobiliyatini o’stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug’ullanish benihoya zarur va muqaddas bir vazifa. Binobarin, u muallimlarning «**diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir**

**fazifadir...Negaki fikrning quvvati ziynati, kengligiga, muallimning tarbiyasiga bog'liqdir**».

Buyuk rus pedagogi K. D. Ushinskiy ham o'qituvchining mehnatini va uning tarbiyalanuvchi shaxsga ta`sirini yuqori baholadi. Ushinskiy Rossiyada o'qituvchilar tayyorlash tizimini birinchi bor ishlab chiqdi.

Ushinskiy pedagogning ishi boshqa ishlarga qaraganda ko'proq doimo g'ayratlanish va zavqlanishni talab qiladi: bu ish tashqi tomonidan bir turda bo'lib ko'rinadi, uning tezda ko'zga ko'rinmaydi. Bu yoshda katta xavf bor, yil sayin bir xil narsadan ta`lim beraverish natijasida « o'rganib qolib, ta`limni mexanik suratda olib borishi mumkin». Ushinskiy o'qituvchini bu xavfdan ehtiyot bo'lishga va hamisha ilgariga qarab siljishga chaqirdi. Tashqaridan qaraganda maktab o'qituvchisining roli oddiy va sodda, biroq u o'z mehnatining yuksak ijtimoiy roli oddiy va sodda, biroq u o'z mehnatining yuksak ijtimoiy ahamiyatini tushunishi lozim. Ushinskiy jamiyatdan o'qituvchilarga zo'r hurmat va g'amxo'rlik bilan qarashni, hamisha e`tibor berishni talab qiladi.

*O'qituvchi biror fanning o'qituvchisigina bo'lmasdan, balki tarbiyachi ham bo'lishi kerak: o'z kasbini sevishi, tarbiya, ishiga zo'r ma`suliyat tuyg'usi bilan qarashi; u ma`lumotli kishi bo'lishi, pedagogika bilan psixologiyani bilishi, pedagogik mahoratga, pedagogik odobga ega bo'lishi lozim.*

A.S.Makarenko o'z bilim, talant va jo'shqin faoliyati bilan pedagogika tarixida chuqur iz qoldirdi. U bir necha pedagogik va publitsistik asarlar yozdi. Uning «Pedagogik poema», «Minoradagi bayroqlari», «O'ttizinchi yillar marshi», «Ota- onalar kitobi», «Bolalar tarbiyasi to'g'risida lektsiyalar», «Ta`lim- tarbiya», tajribasidan ba`zi xulosalar kabi asarlari uni o'ziga xos tarbiya maktabi yaratgan mahoratli pedagog va adib sifatida tanitdi.

O'qituvchining pedagogik- psixologik xususiyatlari va shaxsiy fazilatlarini chuqur o'rganish ishlari XX asrning 30-40 yillarida keng yo'lga qo'yila boshlandi.

XX asrning 70-80 yillarida pedagogika va psixologiya fanlarida o'qituvchining kasbiy tayyorgarligiga, layoqatiga, shuningdek, shaxsiy sifatlarini shakllantirish masalasiga oid tadqiqot ishlarining ko'lami keskin ravishda ortdi. O'qituvchining xarakter xislatlari , pedagogik qobiliyatlari, uning ixtisosiy ko'nikma va malakalari, unda tarbiyachilik mahoratini tarkib toptirish shartlari o'rganilmoqda. Kasbiy tayyorgarlikka oid tadqiqotlarda o'qituvchilarda o'qituvchilik kasbiga qiziqishning uyg'onishi, o'quvchi va talabalarda pedagogik yo'nalishini tarkib toptirish, tarbiya jaroyoning ilmiy- nazariy muammolari, o'qituvchilik mahoratini egallashning psixologik manbalari, pedagogik qobiliyatlarni rivojlanish xususiyatlari, o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorlik faoliyati, pedagogik muloqotning psixologik asoslari ochib berilmoqda.

Bu sohaning yirik tadqiqiotchilari qatoriga I.V.Straxov, N.V.Kuz'mina, I.A. Shcherbakov, F.I.Gonobolin, V.A.Slastenin, S.R.Rajabov, M.O.Ochilov, M.G.Davletshin, R.Z.Gaynutdinov, va boshqalarni kiritish mumkin.

Rus psixologii I.V.Straxov «Pedagogik takt psixologiyasi» nomli asarida o'qituvchining odobi masalasini tadqiq qilib bergan.

Rus olimasi N.V.Kuz'mina o'qituvchilik faoliyatida pedagogik qobiliyatlarning roli va ularni tarkib toptirishga oid qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan. A.I.Shcherbakov pedagogik faoliyatida mahorat juda muhim o'rin egallashini ta`kidlab, o'qituvchining shaxsiy fazilatlari, uning bilimlari, amaliy ko'nikma va malakalari o'zaro birlashib pedagogikmahoratini vujudga keltiradi, deydi. Pedagogik mahoratinining shakllanishi o'qituvchi shaxsini takomillashishjaroyoni bilan uzviy bog'liqdir.

Yirik o'zbek olimi S.R. Rajabov butun umr va faoliyatini o'qituvchi shaxsini tadqiq qilishga, o'qituvchilar tayyorlashni takomillashtirishga bo'lg'usi muallimlarni sharqona tarbiyalashga bag'ishlangan.

O'zbek olimi M.O. Ochilovning ko'p yillik tadqiqoti ichida o'qituvchishaxsini shakllantirish markaziy o'rinni egallaydi.

**Nazorat savollari**:

**Nazorat savollari:**

1. «Pedagogik mahorat asoslari» fanining vujudga kelish tarixi haqida nimalar bilasiz?
2. Fanning maqsadi va vazifalari qanday?
3. Kasbiy va pedagogik mahorat tushunchalarini izohlang.
4. Umumiy pedagogik madaniyatga nimalar kiradi?
5. Pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
6. Pedagogik qobiliyatlarni tasvirlab bering.
7. Dastlabki pedagogik faoliyatning yuzaga kelishi tarixini so'zlab bering.
8. Faylasuf va notiq Suqrot haqida nimalarni bilasiz?
9. I.F.Gerbart qanday pedagogik asarlar yozgan?
10. Maktab, ustoz va mudarrislar to'g'risida qaysi Sharq mutafakkirlari o'z qarashlarini bayon etgan?
11. A. Navoiy o'zining qaysi asarlarida maktabdorlar, mudarrislar haqida yozgan?
12. A.Avloniyning pedagoglik faoliyati haqida gapirib bering?

## 8-MA'RUZA. OLIY TA'LIM TIZIMIDA O'QITISH METODIKASI

**Reja**

1.Pedagogik texnologiya va unga turli jihatdan yondashish

2.Pedagogik texnologiyada metodlarning tutgan o'rni

3.Mahsusfanlarnio'qitishjarayonidaqo'llaniladiganpedagogik texnologiyalari va ularning ahamiyati.

4.Ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarda ulardan foydalanish.

Tayanch iboralar: *Mahsusfanlar,o‘qitishjarayoni,pedagogiktexnologiyalari,ahamiyat,ma‘ruza, seminar, amaliy mashg‘ulotlar, foydalanish.*

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI


1.TojiboyevaD.,Yo‘ldoshevA.Mahsusfanlarnio‘qitishmetodikasi.-Toshkent. Aloqachi, 2009. 567 b.

2.Mavlonova R., To‘rayeva O. Pedagogika. -Toshkent. O‘qituvchi, 2001. 163

3.ПронинаЕ.Н.,ЛукашевичВ.В.«Психологияипедагогика».Учебник для студентов ВУЗов. Издательство «Элит», -М.: 2004.

4.Профессиональнаяпедагогика.Учебникдлястудентовобучающихся попедагогическимспециальностяминаправлениям.-М.: Профессональное образование, 1997.

5.Azizxo‘jayevaN.N.Pedagogiktehnologiyavapedagogikmahorat.-T.:—Moliya, 2003.

6.БеспалкоВ.П.Слагаемыепедагогическойтехнологии.-М.:Педагогика, 1999.

7.ГулямовС.С., МирбартоваЛ.И.,АбдуллаевА.Х.Новые педагогическиетехнологии.Рекомендациипоорганизации дистанционного обучения. –Т.: 2002.

8.Ларнер И.Я. Внимание о технологии обучения. – М.: Педагогика, 1990

9.Рочинский В.М.Азбука педагогического труда. -М.: 1990.

10.Sayidahmedov N.Yangi pedagogik tehnologiyalar. -T.: —Moliya, 2003.

**Internet saytlari**

http://www.school.edu.ru.

http://www.inter-pedagogika.ru

www.newhorizons.org.

http://www.pharmax.m/articles.

http://www.pravoteka.ru.

Hozirgivaqtdata'limjarayonidao‘qitishningzamonaviy metodlarikeng qo‘llanilmoqda.O‘qitishningzamonaviymetodlariniqo‘llasho‘qitish jarayonidayuqorisamaradorlikkaerishishgaolibkeladi.Ta'limmetodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsad ga muvofiq sanaladi.

An'anaviydarsshaklinisaqlabqolganholda,ungaturli-tumantalabalar faoliyatini faollashtiradiganmetodlar bilan boyitish talabalarning o‘zlashtirish darajasiningko‘tarilishigaolibkeladi.Buninguchundarsjarayonioqilona tashkilqilinishi,ta'limberuvchitomonidantalabalar ningqiziqishiniorttirib, ularningta'limjarayonidafaolligimuttasilrag‘batlantirilibturilishi,o‘quv materialinikichik-kichikbo‘laklargabo‘lib,ularningmazmuniniochishda

Aqliyhujum,kichikguruhlardaishlash,bahs -munozara,muammolivaziyat, yo‘naltiruvchimatn,loyiha,rollio‘yinlarkabimetodlarniqo‘llashva talabalarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda-talabalarni faollas htiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'limjarayoniningmarkazidatalababo‘lgan metodlartushuniladi.Bu metodlar qo‘llanilganda ta'lim beruvchi talabani faol ishtirok etishga chorlaydi.

Talababutunjarayondavomidaishtiroketadi.Talabamarkazd abo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish -o‘rganish;
- talabaning yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini talabaning e?tiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- talabaning tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo‘llab -quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr -mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Mamlakatimizdata'limtiziminingislohqilinishita'limjarayoniniilg‘orjahontajri basidankelibchiqqanholdatashkiletishnitaqozoqiladi.Fan -texnikataraqqiyotitexnologiyanifansifatidao‘ rganishni,keyinchalikesa o‘quv jarayonini ham texnologiya lashtirishga olib keldi.

Hozirmamlakatlaro‘rtasidagifarmasevtik raqobat—fan,texnikava texnologiya sohasidagi raqobatga aylandi. Demak, raqobat in tellektual mohiyat kasb etib, ta'lim sohasidagi raqobatga aylanmoqda desak xato bo‘lmaydi.

Biroq respublikamizda ta'lim tizimini isloh qilishga, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashnita'minlashgadoiro‘tkazilayotganislo hotlaravvalgitalimtiziminingijobiytomonlaridantamomilavozkechishdeganiemas.B archa sohada, jumladan, ta'lim tizimidahamavvalgierishilgan ilmiypotensialga tayanish,ma'naviymerosniamaliyotgatatbiqetish,ijobiyjihatlardan foydalanishza rur.Asosiymaqsad—zamonaviytalabdarajasidayoshlarimizni tarbiyalasli,ijodiyfikrlayoladiganmalakalimutaxassislartayyorl ashdir.Bu esa, o‘z navbatida, ta'lim jarayoniga boshqacha nazar bilan qarashni talab etadi.

Mamlakatimizdata'limtizimidaqatorkamchiliklarmavjudbo‘lib,uo‘z navbatida zamon talablariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga to‘sqinlik qilaboshladi.Kadrlartayyorlashmilliydasturiningkamchiliklarvamuammolar qismida ko‘rsatib o‘tilgan.Ushbu dasturiy hujjatda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tarbiyatiziminitashkilqilishmuammolarihalqilinmagani,amal dagita'limtizimi zamonaviytaraqqiytopgandemokratikdavlatlartalablarigajavobberaolmasligi, mutaxassislar tayyorlash, ta'lim-tarbiya tizimi jamiyatda bo‘layotgan islohot, yangilash jarayonlari,bozortalablaribilanbog‘lanmagani,mavjudumumta'limvakasb -hunar dasturlario‘rtasidauzviylik,vorisiylikningyo‘qligisababli,tayanchvao‘rtamaktab bitiruvchilaridakasbgayo‘naltirilganlikvamehnatfaoliyatiko‘nikraalari shakllantirilmagani,o‘quvjarayonibilimdarajasio‘rtachabo‘lgantalabalarga mo‘ljallangan bo‘lib. ta'limning iqtidorli yoshlar bilan yakka tartibdagi o‘quv dasturlari bo‘yicha ishlash kabi mexanizmlaridan yaxshi foydalanilmagani ta'kidlangan.

KadrlartayyorlashMilliydasturida:«Maktablardavaboshqao‘quvyurtlarida ta'lim jarayonining o‘zidagi va o‘qitish metodidagihar xil kamchiliklar oqibatida bilim berishdayuzagakelgannodemokratikhamdajamiyatuchunzararlimuhitshungaolib keladiki,talabalardamustaqilfikrlashrivojlanmayqolyapti,oqilonahayotiyyechimlar qabul qilish uchun yyetarli tayyoigarlik yo‘q», — deyiladi.

Ana shu kamchiliklarni hisobga olgan holda Milliy dasturniamalga oshirishning birinchikursidayoqpedagogvailmiypedagogikkadrlartayyorlashhamdaularni malakasini oshirishni zamon talablariga javob beradigan darajada tashkil etish masalasi qo‘yilgan.

Ikkinchikursdaesata'limmuassasalarinimoddiy -texnikavaaxborotolish bazasini mustahkamlashni davom ettirish bilanbirga o‘quv-tarbiya jarayonini

yuqori sifatli o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogiktexnologiyalar bilan ta'minlanishi amalga oshirilishi va keyingi kursda ham davom ettirilishi ko‘zda tutilgan edi.

Ma‘lumki,sobiqIttifoqda1917-yilta'limtizimitubdanislohqilinib,bolalarning millati, jinsi, ijtimoiy va moddiy ahvolidan qafi nazar tekin bilim olish imkoni yaratilib, 1936-yilgakelibyoppasigasavodxonliktiklanganedi.Shuninguchunhamfan texnikada,ayniqsa,atom,kosmiktadqiqotsohalaridakattayutuqlargaeri shildi. Yerning birinchi sun'iy yo‘ldoshi uchirildi, kosmosga bir inchi inson parvoz qildi.Mamlakatimizda bir tomondan, qator sabablarga ko‘ra ta'lim sohasida yo‘qotilgan ilgarigimavqeinitiklash,ikkinchitomondan,rivqjlanganmamlakatlarqatoridano‘ rin olish uchun ta'lim samaradorligini oshirish, buning uchun esa chora-tadbirlar belgilash zarur edi.

Mamlakatimizmustaqillikkaerishishibilananashuzaruriyatgaalohidadiqqat qaratila boshlandi. Aynanana shu zaruriyat tufayliKadrlar tayyorlash milliy dasturi ishlab chiqildi va uni amaldaqo‘llash taklifi kiritildi.

Ta'limjarayoninijahontajribalariasosidatashkilqilish,talabalarnimustaqil fikrlashga o‘rgatishga ahamiyat berilaboshlandi. Respublikamizda ham ta'lim jarayonini yangipedagogiktexnologiyalarasosidatashkiletishgae'tiborberishboshlandi. Pedagogik texnologiya deganda nimani tushunishimiz kerak degan savolga javob berish uchun avvalo texnologiya so‘zining ma'nosini bilib olishimiz kerak.

«Texnologiya»—yunoncha techne va logos so‘zlaridan olinganbo‘lib, mahorat, so‘z,ta'limotma'nosinianglatadi. Odatda,texnologiyaishlabchiqarishganisbatan qo‘llanilgan.Texnologiyadegandamahsulotishlabchiqarishuchunxomashyo,materiallar,yarimfabrikatlargaishlovberishyokiqaytaishlashyo‘llari,usullari tushunilgan. Fan-texnika taraqqiyoti tufaylitexnologiya ham takomillashib borgan.

G‘arbdavlatlaridaasosan,AQShdapedagogiktexnologiyaningyuzaga kelishigaasosiysabablar,zamonaviytalabalarningdiqatinijalbqilish,an'anaviy dars metodlari bilan ularni dars jarayoniga qiziqtirish qiyinlasha boshladi, chunki yangiavlod(ayniqsaO‘zbekistonmustaqillikkaerishgandanso‘ng, mamlakatimizdayuzberayotganijobiy-demokratiko‘zgarishlar)-bizning yoshlarimizdaham,chetellardagiyoshlardaxamaxborotlarningko‘pchiligi natijasidapedagoglaroldingiusullarbilanoquvchilarniqiziqktiraolmasdan qoldilar.Bizningfikrimizcha,buyerdao‘quvchilargaharkunita'siretayotgan, ularningxis-tuyg‘usiniqamrabolayotganTV,kinovavideofilmlaphaqidagi o‘tgan asrning ya'ni XX asrninng 50 – yillarida mashhur olim va pedagog Selesten Frene shunday yozgan edi.

Bumasalaningbirtomonibo‘lsa,masalaniikkinchitomoniasrimizning boshidayashabo‘tgannemispedagogiRudolfShteyneran'anaviydarshaqida shundayyozganedi:«Faqateshitishvako`rishmetodibilanta'limolgan o`quvuchilarjudapassivzotlargaaylanadilar.Ularhayotiyfazilatoldidaojiz bo`ladilar» deb ta'kidlashi bu kunda juda ham dolzarbdir.

Demak,axborotmanbalari(o`qituvchi-professor;TV;videofilmlarva boshqaaudiovizualvositalar)o`rtasidaraqobatketayotganekan,talabaning diqqatini o`ziga jalb eta olish,qiziqishi va motivlarini darsga yo`naltirish uchun dars jarayonida yangi metodlardan foydalanish, ularni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish ehtiyoji yuzaga keladi.

Ilg`orpedagogiktexnologiyalargaasoslangandarsjarayonida o`qituvchiningvazifasigo‘yokiteatrdagirejissyorkabibo‘lib,udarsjarayonini «saxna»ni boshqarish va yordam berishdan iborat.Talabalarni birgalikda faoliyat ko`rsatishga o‘rgatish ham ushbu murakkab vazifaning asosiy qismidir Ilg‘orpedagogiktexnologiya-muayyanmuddatgamo‘ljallangan,ta'lim jarayoniko‘proqta'limoluvchishaxsigaqaratilgan,faollashtiruvchimetodlarva zamonaviyta'limvositalaridanfoydalanganholdao‘quvmaqsadigaerishishni kafolatlaydigan ta'lim berish jarayonidir.

Insonvoqelikto‘g‘risidagidastlabkima'lumotlarniko‘ris h,eshitish,hid bilish,ta'mbilish,tuyishkabisezgilarorqaliqabulqiladi.Sezgilarorqaliqabul qilingan ma'lumotlar miyada muayyan xususiyatlariga ko`ra yaxlit holga, ma'lum birtizimgaolibkelinishi,ya'nima'lumotlaridrokqilinishilozimb o‘ladi. Axborotlarning uzviyligi va davomiyligini ta'minlashga xizmat qiluvchi bu jarayon ularni xotirada saqlash va zarur holatlarda qayta esga tushirishdan iborat bo`ladi. Ma'lumotlarni qabulqilishdaqanchalikko‘psezgiorganlariqatnashsa, uniidrok etish,o`zlashtirishvaxotiradasaqlashshunchalikosonkechadi.Ikkinchi tomondan,harbirkishidaqaysidirsezgiorganlariko‘proq,qaysilaridirkamroq rivojlangan bo‘ladi. Shubois,ta'limjarayonidanazariybilimvaamaliykonikmalarni shakllantirish, o‘quv materiallarini turli ko‘rinishlarda, turli sezgi organlari orqali qabul qilinishi va idrok etilishini ta'minlash–ta'lim samaradorligini oshirishning muhimomilihisoblanadi.Butundunyodata'limjarayonidaqo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalarning 100 dan ortiq metodlari mavjuddir.

Harqandayholatdahamnazariydarsjarayonida,masalanfaqatma'ruza o‘tiladiganvaqttaxminan20daqiqadanoshmasligikerak.Chunkio‘rganishning dastlabki20daqiqasiengsamarali,20daqiqadankeyinesao`rganishnidavom ettirishmotivatsiyasitezdapasayaboshlaydi.Buhammatakliflarta'lim oluvchining diqqatini uzoqroq vaqtgacha saqlab turishga xizmat qiladi. Misol tariqasida, 80 daqiqaga mo‘ljallangan o‘quv materialini muayyan ketmaketlikdagi turli metodlarni uyg‘unlashtirish yordamida uzatish keltirilgan.

## Ta'lim oluvchi diqqatining vaqtga nisbatan o`zgarib borishi




Yuqoridagichizmagako`ra,yangimavzuningbayoni20-25daqiqalik ma'ruzadan boshlanishi, so`ng esa 15-20 daqiqa ma'ruza qilingan o‘quv materialini vizuallashtirish, ya'ni unga doir ko‘rgazmali materiallar asosida tushuntirish, 10-15 daqiqa davomida esa, unga doir biror tajribani namoyish qilish yoki biror misolni tahlil qilish va oxirida 20-25 daqiqa davomida o`quv materialini mustahkamlashga qaratilgan mustaqil yoki guruhiy amaliy mashq o‘tkazish tavsiya etiladi.Shuning uchun,nazariyo‘quvmaterialinikichik-kichikbo‘laklargabo‘lib,har20daqiqa davomida turli ta'lim metodlaridan foydalanib uzatish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ta'limmetodlaridanbundayuyg‘unlikdavaketma-ketlikdafoydalanish natijasida,nafaqatta'limoluvchilarningdiqqatinijalbetishdarajasinioshirish, balki ta'lim samaradorligini oshirishga ham erishish mumkin.

Barchametodlaro‘quvmaterialiningdidaktikvazifasi,shart-sharoitlarva vaqtni e'tiborga olgan holda tanlanadi. To‘g‘ri tanlangan uyg‘unlashgan metodlar talabaning diqqatini uzoqroq saqlab turish va uning faolligini oshirish imkoniyatini beradi. Bu esa o‘z navbatida ta'lim samaradorligining oshishiga olib keladi.

Idrokqilishpaytidaqanchako‘psensorik(sezgi)kanallardanfoydalanilsa, esdaolibqolinganbilimlarningmiqdorivasifatishunchalikyuqoribo‘ladi. Talabalarning esda saqlab qolish darajasiga sezgi organlarining ta'siri keltirilgan.

Эсда сақлабқолиш даражаси




| Bilaman | Bilishni istayman | Bilib oldim |
|---|---|---|
| 1 | 1 | 1 |
| 2 | 2 | 2 |
| 3 | 3 | 3 |

INSERT

•V-bilaman(-)- to‘g‘ri kelmadi

•(+) –yangi axborot( ? )- tushunmadim

| V | + | - | ? |
|---|---|---|---|
| | | | |

SWOT –таҳлили

•S-kuchli tomoni• W- kuchsiz tomoni•O- imkoniyatlari•T- xavf-xatar

| Strengths | Weakness |
|---|---|
| Opportunities | Threats |

FSMU-texnologiyasi

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating

M – ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil (misol) keltiring

U – fikringizni umumlashtiring

Vazifa:

Talabalarkichikguruhlargabo‘linib,xarbittaguruhfikrvadalillarini4ta kursbo‘yichayozibchiqadi.Kichikguruhlaryozganfikrlariniximoyaqiladi. So‘ng o‘qituvchi tomonidan fikrlar umumlashtiriladi.

«NIMA UCHUN» TEXNOLOGIYASI

NIMAUCHUNBUMUAMMOKELIB CHIQDI?-muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va reja-lashtirish jarayonida qo‘llash mumkin «QANDAY» TEXNOLOGIYASI

QANDAY QILIB MUAMMONI HAL ETISH MUMKIN?-muammoni xal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etiladi va ularni amalga

oshirish usullarini xam o‘rganadi

«BUMERANG» TRENINGI

Talabalar kichik guruhlarga bo‘linadi va vazifa yozilgan material tarqatiladi. qar bitta guruh o‘z fikrini bayon qiladi va guruhlar orasida savol-javob o‘tkaziladi.

«CHAYNVORD» USULI

Talabalarkichikbirnechtaguruhlargabo‘linadivaulargavazifayozilgan materialtarqatiladi.Harbittaguruho‘zfikrlarinibayonqilib,birinchivazifani bajargan guruhdan bitta vakil chiqib tog‘ri javoblar aniqlanadi.

**“AQLIY HUJUM”**



Aqliyhujum‖metodi-birormuammobo‘yichatalabalartomonidanbildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma'lum bir yyechimga kelinadiganmetoddir.―Aqliyhujum‖metodiningyozmavaog‘zakishakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga talabalarning har

birio‘zfikriniog‘zakibildiradi. Talabalaro‘zjavoblarinianiqvaqisqatarzda bayonetadilar.Yozmashaklidaesaberilgansavolgatalabalaro‘zjavoblarini qog‘ozkartochkalargaqisqavabarchagako‘rinarlitarzdayozadilar.Javoblar doskaga(magnitlaryordamida)yoki«pinbord»doskasiga(ignalaryordamida) mahkamlanadi.―Aqliyhujummetodiningyozmashaklidajavoblarnima'lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

Aqliy hujum metodidan foydalanilganda talabalarning barchasini jalb etish imkoniyatibo‘ladi,shujumladantalabalardamuloqotqilishvamunozaraolib borishmadaniyatishakllanadi.Talabalaro‘zfikrinifaqatog‘zakiemas,balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi.Bildirilganfikrlarbaholanmasligitalabalardaturlig‘oyalar shakllanishigaolibkeladi.Bumetodtalabalardaijodiytafakkurnirivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Aqliyhujummetodita'limberuvchitomonidanqo‘yilganmaqsadgaqarab amalga oshiriladi:

1.Talabalarningboshlang‘ichbilimlarinianiqlashmaq sadqilibqo‘yilganda,bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2.Mavzunitakrorlashyokibirmavzunikeyingimavzubilanbog‘lash maq sad qilib qo‘yilganda –yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.

3.O‘tilganmavzunimustahkamlashmaqsadqilibqo‘yilganda-mavzudanso‘ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

Aqliy hujum metodini qo‘llashdagi asosiy qoidalar:

Bildirilgan fikr-g‘oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.

Bildirilganharqandayfikr-g‘oyalar,ularhattoto‘g‘ribo‘lmasaham

inobatga olinadi.

Har bir talaba qatnashishi shart.

Quyida ―Aqliy hujum metodining tuzilmasi keltirilgan.




―Aqliy hujum‖ metodining tuzilmasi«Aqliy hujum‖metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

Talabalargasavoltashlanadivaulargashusavolbo‘yichao‘zjavoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;

Muammoli savol beriladi

Fikr va g‘oyalar eshitiladi va jamlab boriladi

Fikr va g‘oyalar guruhlanadi

Talabalar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

Talabalarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli

qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;

Fikr-g‘oyalar ma'lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi;

Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

―Aqliy hujum‖ metodining afzalliklari:

natijalar baholanmasligi talabalarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga

olib keladi;

talabalarning barchasi ishtirok etadi;

fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;

talabalarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;

talabalarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.

―Aqliy hujum‖ metodining kamchiliklari:

ta'lim beruvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;

ta'limberuvchidanyuqoridarajadaeshitishqobiliyatiningtalab etilishi.

## “KIChIK GURUhLARDA IShLASh”



“Kichikguruhlardaishlash”metodi-talabalarnifaollashtirishmaqsadida ularni kichikguruhlarga ajratganholdao‘quvmaterialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbumetodqo‘llanilgandatalabakichikguruhlardaishlab,darsdafaol ishtiroketishhuquqiga,boshlovchirolidabo‘lishga,bir-biridano‘rganishgava turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

―Kichikguruhlardaishlashmetodiqo‘llanilgandata'limberuvchiboshqa interfaolmetodlargaqaragandavaqtnitejashimkoniyatigaegabo‘ladi.Chunki ta'limberuvchibirvaqtningo‘zidabarchatalabalarnimavzugajalbetaoladiva baholayoladi.Quyida―Kichikguruhlardaishlash‖metodiningtuzilmasi keltirilgan.

―Kichik guruhlarda ishlash metodining tuzilmasi

―Kichik guruhlarda ishlash metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:Faoliyat yo‘nalishianiqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-birigabog‘liqbo‘lgan masalalar belgilanadi.

Kichikguruhlar belgilanadi. Talabalarguruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari

mumkin.

Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.

Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.

Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.

Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.

Kichik guruhlar baholanadi.

-«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:

- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;

- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;

- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;

- barcha talabalar jalb etiladi;

-o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

-ba'zikichikguruhlardakuchsiztalabalarbo‘lganligisabablikuchli talabalarning ham past baho olish ehtimoli bor;

-barcha talabalarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;

-guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;

-guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

**“DAVRA SUHBATI” metodi**



Davrasuhbatimetodi–aylanastolatrofidaberilganmuammoyoki savollar yuzasidan talabalartomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

DAVRA SUHBATI metodi

Davrasuhbati‖metodiqo‘llanilgandastol-stullarnidoirashaklida joylashtirishkerak.Buharbirtalabaningbir-biribilan—ko‘zaloqasi‖nio‘rnatib turishiga yordam beradi. Davrasuhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir.

Og‘zakidavrasuhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va talabalardan ushbusavolbo‘yichao‘zfikr-mulohazalarinibildirishlariniso‘raydivaaylana bo‘ylab har bir talaba o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan talabani barchadiqqatbilan tinglaydi, agarmuhokama qilishlozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalartinglanibbo‘lingandanso‘ng muhokamaqilinadi.Buesa

talabalarningmustaqilfikrlashigavanutqmadaniyatiningrivojlanishigayordam beradi.




Davra stolining tuzilmasi

Belgilar:

1-ta'lim oluvchilar

2-aylana stol

Yozma davra suhbatidahamstol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir talabagakonvertqog‘ozi beriladi. har bir talaba konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo‘yichao‘zsavoliniberadivaJavobvaraqasi‖ningbirigao‘zjavobiniyozib, konvertichigasolibqo‘yadi.Shundanso‘ngkonvertnisoatyo‘nalishibo‘yicha yonidagitalabagauzatadi.Konvertniolgantalabao‘zjavobini―Javoblar varaqasi‖ningbirigayozib,konvertichigasolibqo‘yadivayonidagitalabaga uzatadi. Barcha konvertlaraylana bo‘ylabharakatlanadi. Yakuniyqismdabarcha konvertlar yig‘ib olinib, tahlil qilinadi.

Quyida ―Davra suhbati metodining tuzilmasi keltirilgan.




—Davra suhbati metodining tuzilmasi

—Davra suhbati metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1.Mashqulot mavzusi e'lon qilinadi.

2.Ta'lim beruvchi talabalarni mashqulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.

3.Harbirtalabagabittadankonvertvajavoblaryozishuchunguruhdanecha talababo‘lsa,shunchadan—Javoblarvaraqalarinitarqatilib,harbirjavobniyozishuchun ajratilganvaqtbelgilabqo‘yiladi.Talabakonvertgava

—Javoblar varaqalariga o‘z ismi-sharifini yozadi.

4.Talabakonvertustigamavzubo‘yichao‘zsavoliniyozadiva—Javoblar varaqasiga o‘z javobini yozib, konvert ichiga solib qo‘yadi.

5.Konvertgasavolyozgantalabakonvertnisoatyo‘nalishibo‘yichayonidagi talabaga uzatadi.

6.Konvertniolgantalabakonvertustidagisavolga—Javoblarvaraqalari‖dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solibqo‘yadihamda yonidagi talabaga uzatadi.

7.Konvertdavrastolibo‘ylabaylanib,yanasavolyozgantalabaningo‘ziga qaytibkeladi.Savolyozgantalabakonvertdagi―Javoblarvaraqalarini baholaydi.

8.Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali talabalar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqavaaniqifoda eta oladilar. Bundantashqariushbu metodorqalitalabalarni muayyanmavzubo‘yichabaholash imkoniyatiyaratiladi. Bunda talabalaro‘zlari bergansavollarigaguruhdagiboshqatalabalarberganjavoblarinibaholashlariva ta'lim beruvchi ham talabalarni ob'ektiv baholashi mumkin.

―Davra suhbati metodining afzalliklari:

-o‘tilgan materialining yaxshi esda qolishiga yordam beradi;

-barcha talabalar ishtirok etadilar;

-har bir talaba o‘zining baholanishi mas'uliyatini xis etadi;

-o‘z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

―Davra suhbati‖ metodining kamchiliklari:

-ko‘p vaqt talab etiladi;

-ta'limberuvchiningo‘zihamrivojlanganfikrlashqobiliyatigaegabo‘lishi talab etiladi;

-talabalarning bilim darajasiga mos vaqiziqarlibo‘lgan mavzu tanlash talab etiladi.

Ilmiy ijodkorlik texnologiyasini yaratish ustida 1946 yildan e’tiboran ish boshlangan.Bu yangi texnologiya TRIZ (teoriya resheniya izobretatelskixzadach) deb nomlangan.TRIZ haqidagi birinchi ma’lumot matbuotda 1956 yilda paydo bo’lgan.

1926 yil Toshkent sh.tug’ilgan Genrix Saulovich Altshuller 1958 yili TRIZni o’rgatish bo’yicha birinchi o’quv seminarini o’tkazgan va ushbu o’quv seminarida G.Altshuller tomonidan ilk bor IOK (IKR –idealniy konechniy rezultat) tushunchasiga ta’rif berilgan.

**IMEN-**ishlab chiqarishni, yangi texnik fikrlarni aniq fanga aylantiradi,ixtiroli masalalalarni yechishga yordam beradi. IMEN-talimda eskiliklardan voz

kechishdi. IMEN elmentlarni faqat tehnik sohalarda emas, balki talim-tarbiya, shuningdek, boshqa sohalarida ham ishlatilishi mumkin.

Xayotdagi va tabiatdagi xar bir predmet,xar bir modda, hodisa, voqea, obyektda ikkilamchilik siri qarama-qarshilik mavjudligitalaba(yoki o’quvchi) larni har bir narsaning nimasidir yaxshi yo nimasidir yomon, bir tomondan foydali ikkinchi tomondan zararli, bir jihatdan halal bersa ikkinchi jihatdan zarur ekanligiga qiziqish uyg’otadi va uni topishga undaydi.Bu bilan o’zlashtirilishi qiyin bo’lgan ayrim materiallarni **IMEN** elementlari orqali osonlik bilan o’zlashtira olish imkoniyatiga ega bo’ladilar.

**„Zigzag”** usuli 1980-1990- yillardan boshlab paydo bo’lgan. Bu usulning boshqa usullardan farqi shundaki, ishtirokchilar mayda guruhlarga ajratiladilar va talaba(yoki o’quvchi) lar raqamlanadilar, spiker (boshliq) saylanadi, so’ngra bir xil raqamlar bir-birini topshiriq „topadilar.Topshiriq beriladi va u o’zlashtirgach, tarqalishadilar. Xar bir azo o’zi o’zlashtirgan materialni eski sheriklarga aytib beradi.Savol-javobda esa guruh baholanadi.Xar bir raqamlanganlar yangiva xar xil topshiriqlar olganini xicobga olsak, xar bir talaba(yoki o’quvchi)o’z guruhi manfaati uchun xam berilgan topshiriqni bilishi kerak va bilishga majbur.!Chunki, u o’z guruhiga qaytganda, o’rgangan mavzu bo’yicuha savol-javobda guruhi nomidan qatnashishi kerak. 4 ta guruh bo’lsa, 1,2,3,4 va 3 ta guruh bo’lsa 1,2,3 kabi va xokazo raqamlanadilar.

## YUMALOQLANGAN QOR

Bu uslub xar qanday tushunchaga mumkin qadar aniqroq tarif topishga imkon beradi, talaba(yoki o’quvchi)larga guruhlarda ishlashni boshqalar fikriga quloq solishni va umumiy nuqtayi nazarni ishlab chiqarishni o’rgatadi.

Bu uslub bosqichma-bosqich hamda har bir bosqichga aniq vaqt belgilanishi bilan o’tkaziladi.

**1-bosqich.** Har qatnashchi 2 daqiqa mustaqil ishlaydi .

- ***2-bosqich.*** Juftliklarda ishlash-uchliklarda ishlash-5 daqiqa.
- ***3-bosqich.***To’rtliklarda ishlash-oltiliklarda ishlash-5daqiqa.
- ***4-bosqich.*** Sakkizliklarda ishlash 5-daqiqa.
- ***5-bosqich.*** 5-daqiqa muhokama.

Guruhlardagi ish tugashiga ko’ra har bir guruh vakillari navbati bilan o’z plakatlarini hona taxtasiga ilib qo’yadilar va uni o’qiydilar. Agar savollar bo’lsa guruh javob beradi. O’qituvchibarcha guruhlar ishtirokidagi ummumiylikni topishga yordam beradi.

**6x6x6**

6x6x6 uslubida o’qituvchi guruh 36 ta qatnashchisini qisqa vaqt mobaynida bironta masalani muhokama qilishga o’rgatish va ular ko’pchiligining fikrlarini bilib olish imkoniyatiga ega bo’ladi.

6 ta guruh (har birida olti kishidan) ishtirokchilarni o’qituvchi tomonidan o’rtaga tashlangan muammoni 6 daqiqa mobaynida muhokama qiladilar.Shundan keyin o’qituvchi 6 ta yangi guruhni shunday tuzadiki, unda oldingi munozara guruhda qatnashganlardan birortasi bo’ladi.Yangi guruh qatnashchilarini o’z guruhlarining ish natijalarini muhokama qiladilar.

**6x6x6** –guruhining barcha a’zolarini faollashtiruvchi uslubdir.Qatnashchilardan har biri qisqa vaqt mobaynida ham munozara qatnashchisi, ham so’zlovchisi rolida bo’ladi.

Guruhlar bitta muammoni yoki bir muammoning turlijihatlarini muhokama qilishlari mumkin. **6x6x6** uslubi o’qituvchi va guruhlarning faol ishtirokini talab qiladi.

**Jadvallar**

Xar bir ishtirokchiga flomaster va qog’oz varag’i beriladi va uni to’rt qismga ajratib xar biriga quyidagi axborotni yozishni iltimos qilinadi;

- Chap yuqori burchakda o’zinini bitta so’z bilan ifodalasin;
- O’ng yuqori burchakda o’zi fahrlanadigan narsasini yozsin;
- Chap pastki burchakda o’zi to’g’risidagi bironta sirni oshkor qilsin(jiddiy sir bo’lishi shart emas,lekin atrofdagilardan hech kim bilmaydigan sir bo’lishi kerak);
- O’ng pastkiburchakda o’zi yaxshi ko’radigan mashg’uloti (hobbysini) yozsin.

O’qituvchi ham o’z jadvalini talaba (yoki o’quvchi) lar bilan bir vaqtda to’ldiradi.

***DIQQAT!***Jadvalni ayrim kataklari mazmuni o'quv predmeti yoki mavzusiga ko'ra o'zlashtirilishi mumkin.Hamma ishtirokchilar o'zlari tayyorlagan jadvallarini o'rgata olib chiqib namoyish etadilar va devorga ilib qo'yadilar.

**KUNGABOQAR**

Talaba (yoki o'quvchi)lar 4-5 kishidan iborat guruhlarga bo'linadi.O'qtuvchio'quvpredmetimavzusidan kelib chiqib o'rtaga bitta muamoni yoki asosiy muamodan kelib chiqib, xar bir guruhga bittadan muamo tashlaydi. Xar bir guruh kungaboqar yasab uning markaziga doira joylashtirib, burglar yopishtiriladi.Mavzuga qarab doiraga yoki umumiy bitta muamo yoki xar bir guruhning muammolari yozilib doskaga yopishtiriladi (yyetarli miqdorda qog'oz barglar oldindan tayyorlab qo'yilishi kerak. Ajratilgan vaqt ichida guruhlar birgalikda fikirlashib, umumiy yoki bir-birlarining muamolari bo'yicha fikr almashinmoqchi bo'lsalar, fikrlarini barga yozib, unio'sha guruh muamosi yozilgan gulag joylashtirib qo'yadilar va xar bir guruhning „muammoli guli" vaqt o'tishi bilan o'sib boraveradi.O'qtuvchi barcha guruhlarqatnashchilariga muammoning eng qulay yechish yo'llarini topishga yordam berib boradi. Bu uslubdan o'tilgan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlashva takrorlash hamda talaba(yokio'quvchi)lar egallagan bilimlarinianiqlashda foydalanish mumkin. Uslub, talaba(yoki o'quvchi)larga muamolarni yechish, umumlashtirish, mustaqil fikrlash va fikrlarini erkin bayon qilishga o'rgatadi.

**OLMOS**

Har bir juftklikka 9ta jumla (hikoya) bo'lgan convert beriladi va ularni olmos shaklida joylashtirish topshiriladi.

Masalan:

Eng muhimi, ma'noli va qiziqarli jumla olmosning uchigajoylashtiriladi. Keyingi 2 tasi bir hil 2-o'ringa yig'iladi. O'rtadagi uchtasi 4-keyingiuchtasi esa 7-daraja hisoblanadi. Olmosningpastiga qo'yilgan jumla, guruh tomonidan eng muhim ma'noli va qiziqarli bo'lmagan jumla deb hisoblanadi. Juftliklar o'z mashqlarini tamomlaganlaridan so'ng ular 6 ta bo'lib guruhga bo'linadi. Guruhdagi har bir juftlik qanday tanlanganini boshqa 2 ta guruh tushuntirib beradi. Shundan so'ng, umumiy 6 ta talaba (yoki o'quvchi), kelishuv asosida bir fikrga kelishadi. Fikrlarini navbatdagi guruhga aytib, shu tariqa suhbat davom etadi. Mashg'ulot ohirida juftliklar bir-birlariga baho beradilar va o'qituvchi fikrlarni umumlashtiradi.

Jumlalar o’rniga 9 ta turli rasmlar ishlatilishi mumkin.Bunday holatda mezonlar ham „o’ziga hos “„„chiroyli” „„kulgili” „„ajoyib ”yoki „o’zgacha” liklari bilan baholanadi. Joylashtirish piramida shaklida (6 tajumla, rasm va sh.k) bo’lishi ham mumkin.

Talaba (yoki o’quvchi) lar jumla yoki rasmlarni katta formatli qog’ozga ,,Zina“ yoki„Narvon” shaklidagi chizma ko’rinishida ham joylashtirishlari mumkin.

**Akvarium**

O’quv honasida stullardan iborat ikkidoira tashkil qilinib, birida stullar tashqariga, ikkinchisida ichkariga qarab joylashtiriladi.Talaba (yoki o’quvchi)lar teng ikki guruhga bo’linadilar:biri ichki stellar aylanasiga boshqasi esa tashqi stullar aylanasiga o’tiradilar.Bnda har kim o’z sherigiga qarab o’tiradi. Talaba (yoki o’quvchi) larga muhokama qilish uchun savol beriladi.

Yaxshilab o’ylab ko’rganlaridan so’ng talaba (yoki o’quvchi) larga sheriklari bilan savolni muhokama qilish uchun bir yoki ikki daqiqa vaqt beriladi.

Ma’lum signaldan so’ng tashqi aylanadagilar bir o’rin chapga surilishadi va ayni savolni yangi sheriklari bilan muhokama qilishadi. Tashqi aylanadagi talaba (yoki o’quvchilar) o’zlarining eng birinchi sheriklari surilib kelgunga qadar yoki yyetarlicha yangi sheriklari bo’lungacha faoliyat davom ettiriladi.

Shu uslubni tashqi doiradagilar tadqiqotchi sifatida ichki doiradagilar himoyachi sifatida ,,doiraviy rolli o’yin “ shaklidagi mashg’ulotlarda ham qo’llash mumkin.

**Taqdimot** –axborot, nazariya yoki tamoyillarni talaba (yoki o’quvchi) largayetkazish maqsadida eksport tomonidan o’tkazaladigan tadbir. U turli (ma’ruza, savol berish, munozara yurutish) shakllarda o’tkazilishi mumkin.Taqdimotning mazmuni uslub sifatida o’qituvchiga ko’proq bog’liq bo’ladi.

Uni o’tkazish tartibi:

1. Talaba (yoki o’quvchi) larnimavzu bilan tanishtirish –so’zlab bermoqchi bo’layotgan narsalar to’g’risida bayon etish.
2. Auditoriyadagi bor imkoniyatdan foydalanib, mavzu bilan tanishtirish(ko’rgazmali).
3. Bajarilgan ishga yakun yasash.
4. Talaba (yoki o’quvchi) larning savollariga javob berish.

### Misollar asosida ta'lim berish

**Misollar asosida ta'lim berish-** tahlil qilish va muhokama qilish uchun foydalaniladigan(gipotetik, taxminiy) vaziyatning yozma ravishdagita'rifidir.

***Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:***

1. Talaba (yoki o'quvchi) larni misol bilan tanishtirish.
2. Misol bilan tanishishlari uchun talaba (yoki o'quvchi)larga vaqt ajratish.
3. Munozara yuritish (yoki muammo hal etish) uchun savollar taqdim etish.
4. Muammoni hal etish uchun talaba (yoki o'quvchi) larga vaqt berish.
5. Muammini hal etish (yoki o'z javoblari taqdimotini o'tkazishlari) uchun talaba (yoki o'quvchi)larga imkon berish
6. Barcha taxminniy yechimlarni javoblarni muhokamaqilish
7. Talaba (yoki o'quvchi)lardan misol bilan ishlash jarayonida nimalarni o'rganganliklariniaytib berishlarini so'rash
8. Mashg'ulot haqida fikr bildirish.

### "Keys –stadi" uslubi

**"Keys- stadi"**inglizcha so'z bo'lib, (case-aniq vaziyat, hodisa, stadi-o'qitish). Bu uslub aniq vaziyat hodisaga asoslangan o'qitish uslubi hisoblanadi.

**"Keys- stadi"**uslubi bo'yicha izlash:

1. Yakka tartibdaishlash (umumiy vaqtning30% i)
   - Vaziyat bilan tanishish (matn bo'yicha yoki so'zlab berish orqali);
   - Muammolarni aniqlash
   - Axborotlarni umumlashtirish
   - Axborot tahlili
2. Guruhda ishlash (umumiy vaqtning 50% i)
   - Muammolarni hamda ularning dolzarbligi bo'yicha ketma-ketligini (ierarxiyasini) aniqlash
   - Muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish

- Har bir yechimning afzal va zaif jihatlarini belgilash
- Muqobil yechimlarini baholsh

3. Yakka tartibda va guruhda ishlash (umumiy vaqtning 20%i)

- Muqobil variantlarniqo’llash immkoniyatlarini asoslash
- Hisobot hamda natijalar taqdimotini tayyorlash

**Haqiqiy vaziyatlarni o’yin qilib ko’rish (simmulyatsiya)**

Haqiqiy vaziyatlarni o’yin qilib ko’rish –haqiqiy vaziyatlarni o’yin shaklida ko’rsatishdan iboratdir.

Otkazish tartibi:

1. Talaba (yoki o’quvchi) larni o’yin davomida o’ziga hos rollarni bajarishlariga tayyorlash.
2. Talaba (yoki o’quvchi) larni bu o’yinning maqsadi, qoidalariva vaqt bilan belgilanadigan chegaralari bilan tanishish .
3. O’quv predmeti mavzusi bo’yicha yoki tanlangan muammo bo’yicha simmulyatsiyaviy sharoit yaratish
4. O’yinni o’tkazishga yordam berish
5. Talaba (yoki o’quvchi)lardan bu o’yin ularda qanday taassurot qoldirganligini aniqlash
6. Yana qanday simmulyatsiyaviy sharoitlar bo’lishi haqida fikrlashish
7. Mashg’ulotni yakunlash

**Suhbat uslubi**

**Suhbat uslubi-**og’zaki bayon qilish uslubi bo’lib talaba (yoki o’quvchi)larningbilimlarini asta sekin o’zlashtirishlarigaolib keluvchi puxta o’ylangan savollar tizimidir.Bu uslub materiallarni mustahkamlash va yangi bilimlarni bayon qilishda qo’llanadi.

1. Evristik suhbat (evrestika yunoncha so’z bo’lib-heuruskeoizlayman, topaman, kashf etaman ma’nosini anglatadi.

**Maqsad** –o’qituvchining mohirona qo’ygan savollari yordamida hamda talaba (yoki o’quvchi) larni tirishqoqligiva mustahkam fikrlashlari tufayliularni yangi bilimlaarinijadal o’zlashtirishlarini ta’minlash.

Bu suhbatda o’qituvchining bitta savoliga talaba (yoki o’quvchi) larning ko’plab javoblarini kutish mumkin.

2. Katexizik suhbat(katehizicyunoncha so’z bo’lib *katechesis ,,nasihat,o’git” ma’nosini anglatadi)* –biron –bir ta’limot asoslarini savol javob tarzidagi qisqacha bayoni

**Maqsad** –talaba (yoki o’quvchi) larningbilimlarini tushunganlik vao’zlashtirganliklarini nazorat qilishdir. Bu uslub, 1-o’rinda hotira va tafakkurning rivojlanishiga yordam beradi. Bu suhbatda o’qituvchining bitta savoliga talaba (yoki o’quvchi) lar bitta aniq to’g’ri javob berishlari kerak.

**Germenevtik suhbat**

**Germenevtik-(yunoncha so’z bo’lib,** hermeneutikes-tushuntiruvchi, talqin qiluvchi ma’noni anglatadi).-matnlarni sharhlash san’ati.

**Maqsad-**o’qilayotgan, o’rganilayotgan matnni tomosha qilinayotgan rasmni experiment va sayohat natijalarining asl ma’nosini mazmunini talaba (yoki o’quvchi) lar hamkorliklarida tushuntirish va izohlash.

Bu suhbat mobaynida o’rganilayotgan materialni to’g’ri tushunish va baho berish ko’nikmmalari hosil bo’ladi.

**“LOYIHA” metodi**



Loyiha‖ metodi-bu talabalarning individual yokiguruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish,tadqiqot o‘tkazish vaamalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda talabalar rejalashtirish,qarorqabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar.Loyihaishlabchiqishyakka tartibda yokiguruhiy bo‘lishi mumkin, lekinharbirloyihao‘quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda talabaning vazifasi belgilan ganvaqtichidayangimahsulotniishlabchiqishyokiboshqabirtopshiriqningyechimini topishdaniborat. Talabalarnuqtai-nazaridantopshiriqmurakkabbo‘lishivau

talabalardan mavjud bilimlariniboshqa vaziyatlarda qo‘llay olishni talab qiladigan topshiriq bo‘lishi kerak.

Loyihao‘rganishgaxizmatqilishi,nazariybilimlarniamaliyotgatadbiqyetishi,talabalartomonidanmustaqilrejalashtirish,tashkillashtirishvaamalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak.

Quyidagi chizmada ―Loyiha metodining bosqichlari keltirilgan .




Loyiha metodining bosqichlari

Loyiha metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1.Chet til o‘qituvchisi-pedagogloyihaishibo‘yichatopshiriqlarniishlabchiqadi. Talabalarmustaqilravishdadarslik,sxemalar,tarqatmamateriallarasosida topshiriqqa oid ma'lumotlar yig‘adilar.

2.Talabalar mustaqil ravishda ish rejasini ishlabchiqadilar. Ish rejasida talabalar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarni rejalashtirishlari lozim.

3.Kichikguruhlar ish rejalarinitaqdimot qiladilar. Talabalar ish rejasiga asosan topshiriqnibajarishbo‘yichaqarorqabulqiladilar. Talabalarpedagogbilanbirgalikdaqabulqilinganqarorlarbo‘yichaerishiladigan natijalarnimuhokamaqilishadi.Bundaharxilqarorlartaqqoslanib,eng maqbulvarianttanlabolinadi.Pedagogtalabalarbilanbirgalikda baholash varaqasini ishlab chiqadi.

4.Talabalartopshiriqniishrejasiasosidamustaqilravishdaamalgaoshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

5.Talabalarishnatijalarinio‘zlarinitekshiradilar.Bundantashqarikichik guruhlarbir-birlariningishnatijalarinitekshirishgahamjalbetiladilar. Tekshiruv natijalarini ―Baholashvaraqasi‖daqayd etiladi. Talaba yoki kichik guruhlarhisobotberadilar.Ishyakuniquyidagishakllarningbiridahisobot qilinadi:og‘zakihisobot; materiallarni namoyishqilish orqalihisobot;loyihako‘rinishidagi yozma hisobot.

6.Pedagogvatalabalarishjarayoninivanatijalarnibirgalikda yakuniysuhbatdavomidatahlilqilishadi.O‘quvamaliyotimashqulotlarida erishilganko‘rsatkichlarnime'yoriyko‘rsatkichlarbilantaqqoslaydi.Agarda me'yoriy ko‘rsatkichlarga erisha olinmagan bo‘lsa, uning sabablari aniqlanadi.

Pedagog ― Loyiha metodiniqo‘llashi uchuntopshiriqlarni ishlabchiqishi,loyihaishinidarsrejasigakiritishi,topshiriqnitalabalarningimkoniyatlarigamoslashtirib,ularniloyihaishibilantanishtirishi,loyihalashjarayoninikuzatibturishivatopshiriqnimustaqilbajaraolishlarinita'minlanishi lozim.

Loyiha metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud:

- yakka tartibdagi ish;

-kichik guruhiy ish;

- jamoa ishi.

O`quvjarayonibilanbog`liqta`limsifatinibelgilovchiholatlarquydagilar: yuqoriilmiy-pedagogikdarajadadarsberish,muammolima`ruzalaro`qish, darslarnisavol-javobtarzidaqiziqarlitashkilqilish,ilg`orpedagogik texnologiyalarvamultimediavositalaridanfoydalanish,tinglovchilarni undaydigan,o`ylantiradiganmuammolarniularoldigaquyish,talabchanlik, tinglovchilarbilanindividualishlash,erkinmuloqotyuritishga,ilmiyizlanishga jalb qilish.

Kursniloyihalashtirishdaquydagiasosiykonseptualyondashuvlardan foydalaniladi:Shaxsgayo`naltirilganta`lim.Butalimo`zmohiyatigako`ratalim jarayoning barcha ishtirokchilarini to`laqonli rivojlantirishni ko`zda tutadi. Bu esa ta`limniloyihalashtirilayotganda,albattama`lumbirta`limoluvchiningshaxsini emas,avvalo,kelgusidagimutahasislikfaoliyatibilanbog`liqo`qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

Tizimliyondashuv.Ta`limtehnologiyasitizimningbarchabelgilarini o`zidamujassametmog`Ilozim:jarayonningmantiqiyligini,uningbarcha bo`g`inlarini uzaro bog`langanligi yahlitligi.

Faoliyatgayunaltirilganyondashuv.Shaxsningjarayonlisifatlarini shahkllantirishgata`limoluvchingfaoliyatiniaktivlashtirishvaintinsevlashtirish, o`quvjarayonidauningbarchaqobiliyatlarivaimkoniyatlari,tashabbuskorliginiochishga yunaltirilgan ta`limni ifodalaydi.

Dialogikyondashuv.Buyondashuvo`quvmunosabatlariniyaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o`z– o`zini faollashtirishi va o`zo`zini ko`rsata olish kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta`limni tashkil etish. Demokratik tenglik, ta`lim beruvchivata`limoluvchifaoliyatmazmuninishakllantirishdavaerishilgannatijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e`tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta`lim. Ta`lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta`limoluvchifaoliyatiniaktivlashtirishusullaridanbiri.Bundailmiybilimni obektivqarama–qarshiligivaunihaletishusullarini,dialektikmushohadani shakllantirishvarivojlantirishni, amaliyfaoliyatgaularniijodiytarzdaqo`llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta`minlanadi.

O`qitishningusullarivatexnikasi.Ma`ruza(kirish,mavzugaoid, vizuallash),muammolita`lim,keys-stadi,pinbord,paradoks valoyihalashusullari, amaliy ishlar.

O`qitishni tashkil etish shakllari. Diologik, polilok, muloqot hamkorlik va o`zaro hamkorlikka asoslangan frontal, kollektiv va guruh.O`qitish vositalari. O`qitishning ananaviy shakllari (darslik, ma`ruza matni) bilan bir qatorda-kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikatsiyausullari.Tinglovchilarbilanoperativteskarialoqagaasoslangan bevosita o`zaro munosabatlar.Teskari aloqa usullari va vositalari: kuzatish, blist-so‘rov, oraliq va joriy,yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o`qitish diagnostikasi.

Boshqarishusullarivavositalari.O`quvmashg`ulotikurslarinibelgilabberuvchitexnologikkartako‘rinishidagio`quvmashg`ulotlarinirejalashtirish,qo‘yilgan maqsadga erishishda o`qituvchi va tenglovchining birgalikdagi harakati,nafaqat auditoriya mashg`ulotlari-balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarningnazoratlari.

Monitoring va baholash.O`quv mashg`ulotida ham butun kurs davomida hamo`qitishningnatijalarinirejalitarzdakuzatibborish.Kursoxiridatesttopshiriqlariyo kiyozmaishvariantlariyordamidatinglovchilarningbilimlari baholanadi .

**Nazorat savollari**

1. Darso‘tishmetodlariorasida,«aqliyhujum»metodiningtutgan o‘rni qanday?

2. Metodni qo‘llashning asosiy kurslarini aytib bering

3. Sizshumetodasosidadarso‘tganingizdanimalargae'tibor qaratgan bo‘lar edingiz?

4.«Case study method» ning sizga qaysi jihatlari yoqadi?

5.Chettil fanlaridandarso‘tganda«casestadymethod»ini qo‘llashning imkoni ham, ahamiyati ham katta degan fikr to‘g‘rimi?

6.Metodlarning asosiy afzalliklarini ko‘rsatib bera olasizmi?

7.Metodlarningko‘rsatilgan kamchiliklariga qo‘shilasizmi?Ulardan boshqa kamchiliklarni ko‘rsata olasizmi?

8.YUNESKOtashkilotiqabulqilgan ta'limtexnologiyasibo‘yichata'rifni keltiring.

9.Ta'lim jarayoni qanday elementlardan iborat?

10.Metod so‘ziga ta'rif bering.

11.An'anaviy metodlarga ta'rif bering.

12.Interfaol metodlar deganda qanday metodlar tushuniladi?

13.«Aqliy hujum» metodini ?o‘llashning qanday asosiy qoidalari bor?

14.Kichik guruhlarda ishlash metodining afzalliklari nimalardan iborat?

15.Davra suhbati metodi qanday bosqichlardan iborat?

16.Ishbopo‘yin metodibilan—Rollio‘yinmetodiningqandayfarqli tomonlari mavjud?

17.Bahs-munozara‖metodinio‘tkazishdaqanday?oidalargaamalqilishkerak?

18.«Muammoli vaziyat» metodiga ta'rif bering.

19.«Loyiha» metodi qanday bosqichlarlarda amalga oshiriladi?

## 9-MAVZU. PEDAGOGIK FAOLIYATDA INNOVATSIYALAR

**Reja:**

1. Ta'limda innovatsion jarayonlarning o'ziga xosligi.
2. Innovatsion jarayonlarning bosqichlari.
3. O'qituvchining innovatsion faoliyat tuzilmasi.
4. O'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish shartlari
5. "Kreativlik" va "pedagogik kreativlik" tushunchalarining mohiyati.
6. Pedagogning kreativlik potensiali.

**Tayanch tushunchalar:***kreativlik, kreativlikni rivojlantirish, kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi omillar,kreativ potensial, pedagogik kreativlik, pedagogning kreativ potensiali, kreativ potensialning tarkibiy asoslari va tamoyillari, pedagogning kreativ potensialini aniqlovchi mezonlar.*

**Foydalanish uchun adabiyotlar:**


1. Azizxodjaeva N.N Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat –T., 2006.
2. Azizxodjaeva N.N. O'qituvchi mutaxasisligiga tayyorlash texnologiyasi – T., 2000.
3. Saidaxmedov N.S. YAngi pedagogik texnologiyalar -T: Moliya nashr., 2003
4. Barisheva T.A., Jigalov YU.A. Psixologo-pedagogicheskie osnovы razvitiya kreativnosti – SPb.: SPGUTD, 2006.
5. Bashina T.F., Ilin E.P. Psixologiya tvorchestva, kreativnosti, odarennosti. – CPb.: Piter, 2009.


### Ta'limda innovatsion jarayonlarning o'ziga xosligi

Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish innovatsion faoliyatni maydonga olib chiqdi. "Innovatsion pedagogika" termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQSHda 60 yillarda paydo bo'lgan. Innovatsion faoliyat F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I. Zagvyazinskiy, V.A. Kan-Kalik, N.V. Kuzmina, V.A. Slatenin, A.I. Sherbakov ishlarida tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda

innovatsion faoliyat amaliyoti va ilg‘or pedagogik tajribalarni keng yoyish nuqtai nazaridan yoritilgan.

X. Barnet, Dj. Basset, D. Gamilton, N. Gross, M. Mayez, A. Xeyvlok, D. CHen, R. Edem ishlarida innovatsion taraqqiyotlarni boshqarish, ta’limdagi o‘zgarishlarni tashkil etish, innovatsiyaning “ hayoti va faoliyati” uchun zarur bo‘lgan shart sharoitlar masalalari tahlil qilingan. YAngilik kiritishning psixologik aspekti amerikalik innovatik olimlardan biri E. Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifalari tasnifini, uning yangilikka bo‘lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi.

Innovatsiya (inglizcha *innovation*) - yangilik kiritish, yangilik demakdir.

A.I. Prigojin innovatsiya deganda muayyan ijtimoiy birlikka - tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga yangi, nisbatan turg‘un unsurlarni kiritib boruvchi maqsadga muvofiq o‘zgarishlarni tushunadi, bu innovator faoliyatidir.

Tadqiqotchilar A.I. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy, A.G. Kruglikov, A.S. Axiezer, N.P. Stepanov va boshqalar innovatsion jarayonlar tarkibiy qismlarini o‘rganishning ikki yondashuvini ajratadilar: yangilikning individual mikrosathi va alohida-alohida kiritilgan yangiliklarni o‘zaro ta’siri mikrosathi.

Birinchi yondashuvda hayotga joriy etilgan qandaydir yangi g‘oya yoritiladi.

Ikkinchi yondashuvda alohida-alohida kiritilgan yangiliklarning o‘zaro ta’siri, ularning birligi, raqobati va oqibat natijada birining o‘rnini ikkinchisi egallashdir.

Olimlar innovatsion jarayon mikrotuzilmasini tahlil qilishda hayotning davriyligi konsepsiyasini farqlaydilar. Bu konsepsiya yangilik kiritishga nisbatan o‘lchanadigan jarayon ekanligidan kelib chiqadi.

**Innovatsion jarayonlarning bosqichlari.**

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsiya jarayoni sxemasi beriladi. U quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Yangi g‘oya tug‘ilishi yoki yangilik konsepsiyasini paydo qilish bosqichi, u kashfiyot bosqichi deb ham yuritiladi.

2. Ixtiro qilish, ya’ni yangilik yaratish bosqichi.

3. Yaratilgan yangilikni amalda qo‘llay bilish bosqichi.

4. Yangilikni yoyish, uni keng tatbiq etish bosqichi.

5. Muayyan sohada yangilikning hukmronlik qilish bosqichi. Bu bosqichda yangilik o‘zining yangiligini yo‘qotadi, uning samara beradigan muqobili paydo bo‘ladi.

6. Yangi muqobillik asosida, almashtirish orqali yangilikning qo‘llanish doirasini qisqartirish bosqichi.

V.A. Slastenin yangilik kiritishni maqsadga muvofiq yo‘naltirilgan yangilik yaratish, keng yoyish va foydalanish jarayoni majmui, uning maqsadi insonlarning ehtiyoji va intilishlarini yangi vositalar bilan qondirish deb biladi. YAngilik kiritishning tizimli konsepsiyasi mualliflari (A.I. Prigojin, B.V. Sazonov, V.S. Tolstoy) innovatsion jarayonlarning ikki muhim shaklini farqlaydilar.

Birinchi shaklga yangilik kiritishni oddiy ishlab chiqish kiritiladi. Bu ilk bor mahsulot o‘zlashtirgan tashkilotlarga taalluqlidir.

Ikkinchi shaklga yangilikni keng ko‘lamda ishlab chiqish taalluqlidir.

Yangilik kiritish ham ichki mantiq, ham vaqtga nisbatan qonuniy rivojlangan va uning atrof-muhitga o‘zaro ta’sirini ifodalaydigan dinamik tizimdir.

Pedagogik innovatsiyada "yangi" tushunchasi markaziy o‘rin tutadi. SHuningdek, pedagogik fanda xususiy, shartli, mahalliy va sub’ektiv yangilikka qiziqish uyg‘otadi. Xususiy yangilik V.A. Slasteninning aniqlashicha, joriy zamonaviylashtirishda muayyan tizim mahsuloti unsurlaridan birini yangilashni ko‘zda tutadi.

Murakkab va progressiv yangilanishga olib keluvchi ma’lum unsurlarning yig‘indisi shartli yangilik hisoblanadi.

Mahalliy yangilik konkret ob’ektda yangilikning foydalanishi bilan belgilanadi.

Sub’ektiv yangilik ma’lum ob’ekt uchun ob’ektning o‘zi yangi bo‘lishi bilan belgilanadi.

Ilmiy yo‘nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari farqlanadi. YAngilik - bu vositadir: yangi metod, metodika, texnologiya va boshqalar.

V.I. Zagvyazinskiy yangi tushunchasiga ta’rif berib, pedagogikadagi yangi bu faqatgina g‘oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlari bo‘lib, o‘zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda ta’lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg‘or boshlanmalarini o‘zida aks ettiradi.

R.N. Yusufbekova pedagogik yangilikka oʻqitish va tarbiya berishda avval maʼlum boʻlmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning oʻzgarib turishi mumkin boʻlgan mazmuni sifatida qaraydi. Pedagogik innovatsiyada R.N. YUsufbekova innovatsion jarayon tuzilmasining uch blokini farqlaydi:

Birinchi blok - pedagogikadagi yangini ajratish bloki. Bunga pedagogikadagi yangi, pedagogik yangilikning tasnifi, yangini yaratish shart-sharoiti, yangilikning meʼyorlari, yangining uni oʻzlashtirish va foydalanishga tayyorligi, anʼana va novatorlik, pedagogikadagi yangini yaratish bosqichlari kiradi.

Ikkinchi blok- yangini idrok qilish, oʻzlashtirish va baholash bloki: pedagogik hamjamiyatlar, yangini baholash va uni oʻzlashtirish jarayonlarining rang-barangligi, pedagogikadagi konservatorlik va novatorlik, innovatsiya muhiti, pedagogik jamiyatlarning yangini idrok etish va baholashga tayyorligi.

Uchinchi blok - yangidan foydalanish va uni joriy etish bloki, yaʼni yangini tatbiq etish, foydalanish va keng joriy etish qonuniyatlari va turlaridir.

M.M. Potashnikning innovatsiya jarayonlari talqinlari kishi eʼtiborini oʻziga tortadi. U innovatsiya jarayonining quyidagi tuzilmasini beradi:

- faoliyat tuzilmasi - motiv - maqsad - vazifa - mazmun - shakl - metodlar - metodika komponentlari yigʻindisi;
- subʼektiv tuzilma-innovatsion faoliyat subʼektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;
- sathiy tuzilma-innovatsion faoliyat subʼektlarining xalqaro, mintaqaviy, tuman, shahar va boshqa sathlari;
- mazmun tuzilmasi - oʻquv-tarbiyaviy ishlar, boshqaruv (va b.)da yangilikning paydo boʻlishi, ishlab chiqilishi va oʻzlashtirilishi;
- bosqichlilikka asoslangan hayot davriylik tuzilmasi – yangilikning paydo boʻlishi - ildam oʻsish - etuklik – oʻzlashtirish - diffuziya (singib ketish, tarqalish) – boyish (toʻyinish) – qoloqlik - inqiroz – irradiatsiya (aldanish) – zamonaviylashtirish*;*
- boshqaruv tuzilmasi - boshqaruv harakatlarining 4 ta turining oʻzaro aloqasi: rejalashtirish - tashkil etish - rahbarlik qilish - nazorat qilish;
- tashkiliy tuzilma - diagnostik, oldindan koʻra bilish, sof tashkiliy, amaliy, umumlashtiruvchi, tatbiq etuvchi.

Innovatsiya jarayoni tarkibiy tuzilmalar va qonuniyatlarni qamrab olgan tizimdan iboratdir.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda innovatsion jarayon kechishining 4 ta asosiy qonuniyati farqlanadi:

- pedagogik innovatsiya muhitining ayovsiz bemaromlik qonuni;
- nihoyat amalga oshish qonuni;
- qoliplashtirish yoki stereotiplashtirish qonuni;
- pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonuni.

Ayovsiz bemaromlik qonunida pedagogik jarayon va hodisalar to‘g‘risidagi yaxlit tasavvurlar buziladi, pedagogik ong bo‘linadi, pedagogik yangilik baholanadi va u yangilikning ahamiyati va qimmatini keng yoyadi.

Nihoyat amalga oshish qonuniyangilikning hayotiyligi bo‘lib, u erta yo kech, stixiyali yoki ongli ravishda amalga oshadi.

Qoliplashtirish yoki stereotiplashtirish qonunishundan iboratki, unda pedagogik innovatsiya fikrlashni bir qolipga tushirish va amaliy harakatga o‘tish tendensiyasiga ega bo‘ladi. Bunday holatda pedagogik qolip (stereotip) qoloqlikka, boshqa yangiliklarning amalga oshish yo‘liga to‘siq bo‘lishga majbur bo‘ladi.

Pedagogik innovatsiyaning davriy takrorlanishi va qaytishi qonunining mohiyati shundaki, unda yangilik yangi sharoitlarda qayta tiklanadi.

Pedagogik innovatsiya tadqiqotchilari innovatsiya jarayonining ikki tipini farqlaydilar:

Innovatsiyaning birinchi tipistixiyali o‘tadi, ya’ni innovatsion jarayonda unga bo‘lgan ehtiyoj hisobga olinmaydi, uni amalga oshirishning barcha shart-sharoitlari tizimi, usullari va yo‘llariga ongli munosabat bo‘lmaydi.

Innovatsiyaning ikkinchi tipiongli, maqsadga muvofiq, ilmiy asoslangan faoliyat mahsulidir.

Oliy maktabdagi innovatsion jarayonlar V.A. Slastenin, M.M. Levina, M.YA. Vilenskiy va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Oliy maktab innovatsion jarayonlari negizida quyidagi yondashuvlarni belgilash mumkin:

- madaniyatshunoslik jihatidan (insonni bilishning ustuvor rivojlanishi) yondashuv;
- shaxsiy faoliyat jihatidan (ta’limdagi yangi texnologiyalar) yondashuv;
- ko‘p sub’ektli (dialogik) yondashuv, kasbiy tayyorgarlikni insonparvar-lashtirish;
- individual - ijodiy (o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro munosabatlari) yondashuv.

Oliy maktabda innovatsion faoliyatning sub’ektioʻqituvchi, uning shaxsiy imkoniyati hisoblanadi. Bunda oʻqituvchi shaxsining ijtimoiy-madaniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari yuksak ahamiyatga molik boʻladi.

Innovatsion pedagogik jarayonning muhim unsurlari shaxsning oʻz-oʻzini boshqarishi va oʻzini- oʻzi safarbar qila olishi hisoblanadi. Uning eng muhim yoʻnalishlaridan biri talabalarning bilish faoliyatini rivojlantirish.

Bunday yoʻnalish talabalarning oʻquv ishlarini faollashtirish, ularning kasbiy ixtisoslashishini aniqlab olish faolligini oʻz ichiga oladi.

Tayanch yoʻnalishlar- ta’lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi, ularning oʻzaro aloqalarida yangi tamoyillarga oʻtish**.**

SHunday qilib, innovatsion faoliyat omillari nazariyasi tahlili uning eng muhim yoʻnalishi gumanistik aksiologiya ekan degan xulosaga olib keladi.

Innovatsion faoliyatga aksiologik yondashuv insonning oʻzini yangilik yaratish jarayoniga baxshida qilishi, uning tomonidan yaratilgan pedagogik qadriyatlar jamini anglatadi.

Aksiologiya insonga oliy qadriyat va ijtimoiy taraqqiyotning birdan-bir maqsadi sifatida qaraydi.

**Oʻqituvchining innovatsion faoliyati tuzilmasi**

Oʻqituvchining innovatsion faoliyatiga yaratuvchilik jarayoni va ijodiy faoliyat natijasi sifatida qaraladi.

V.A.Slastenin oʻqituvchining innovatsion faoliyatini tuzishda unga akmeologik jihatdan yondashadi.

Akmeologiya (akme) - yunoncha oliy nuqta, oʻtkir, gullagan, etuk, eng yaxshi davr degan ma’nolarni bildiradi.

V.A.Slastenin akmeologiyaning yuksak professionalizmga, mutaxassisning uzoq ijodiy umr koʻrishiga olib keladigan sub’ektiv va ob’ektiv omillarini asoslab berdi. Ob’ektiv omillarga olingan ta’limning sifatini, sub’ektiv omillari esa insonning iste’dodi va qobiliyatini, ishlab chiqarish vazifalarini samarali hal qila olishidagi mas’uliyati, mutaxassislarga yondashuvini kiritadi.

YUksak professionalizmga erishishning omillari sifatida quyidagilar koʻrsatiladi:*iste’dod nishonalari;uquvlilik;qobiliyat;iste’dod;oila tarbiyasi sharoiti;oʻquv yurti;oʻz xatti-harakati.*

Akmeologiya ilmiy nuqtai nazardan professionalizm va ijod munosabatida olib qaraladi. Bunda quyidagi kategoriyalar farqlanadi:

- ijodiy individuallik;
- o‘zining o‘sish va takomillashish jarayoni;
- o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish sifatidagi kreativ tajribasi.

O‘qituvchining ijodiy individualligi quyidagilardan iborat:

- intellektual - ijodiy tashabbus;
- bilimlar kengligi va chuqurligi intellektual qobiliyati;
- ziddiyatlarga nisbatan xushyorlik, ijodga tanqidiy yondashuv, vujudan yaratuvchilikka kurashchanlik qobiliyati;
- barcha talabalarning rivojlanishigina emas, balki har bir talabaga alohida rivojlanish uchun psixologik–pedagogik tadbirlar yaratish tushuniladi.

O‘qitishni individuallashtirish:

- o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘lib, unda o‘qitish usullari, sur’atini tanlash talabaning individual xususiyatlari bilan bog‘lanadi;

- individual yondashuvni ta’minlovchi turli o‘quv-metodik, psixologik-pedagogik va tashkiliy-ma’muriy tadbirlardir.

SHunday qilib, didaktika bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarga ko‘ra o‘qitishni individuallashtirish o‘quv jarayonining shunday tashkil qilinishiki, unda individual yondashuv va individual shakl ustuvor hisoblanadi. O‘qitishni individuallashtirish quyidagi mualliflik texnologiyalaridaasoslab berildi:

Inge Untning o‘qitishni individuallashtirish texnologiyasi;

A.S. Gransikayaning moslashuvchan o‘qitish texnologiyasi;

V.D. Shadrikovning individuallikka qaratilgan reja asosida o‘qitish texnologiyasi.

Inge Untning o‘qitishni individuallashtirish texnologiyasidagi asosiy konsepsiya hozirgi sharoitda o‘qitishni individuallashtirishning muhim shakli o‘quvchilarning maktabdagi va uydagi mustaqil ishlari deb qoidalashtirilgan. Inge Unt uning mazmuni va metodikasi deb mustaqil ishlar uchun individual o‘quv vazifalari, joriy o‘quv adabiyotiga moslashtirilgan, individuallashtirilgan mustaqil ishlar qo‘llanmasi asosida nashr etilgan ish daftarlarini tushunadi.

A.S.Granitskaya o‘zining moslashuvchan o‘qitish tizimini sinf-dars tizimida tashkil etish va unda o‘qituvchi 60-80% vaqtini o‘quvchilar bilan individual ishlashga ajratish mumkinligini qayd qiladi. A.S.Granitskaya metodikasining o‘ziga xosligi uning darsni muayyan g‘ayriodatiy qurilma asosida tashkil yetishidir:

Birinchi qism – barchani o‘qitish;

Ikkinchi qism – ikki parallel jarayon: o‘quvchilarning mustaqil ishlari va o‘qituvchining ayrim o‘quvchilar bilan individual ishlashi, ya’ni umumlashtirilgan sxemalardan foydalanish, almashinib turuvchi juft o‘qituvchi bo‘lib ishlash, moslashuvchan ko‘p qirrali vazifalar va b.

V.D.SHadrikov gipotezasiga ko‘ra agar bolaga murakkablashib boruvchi vazifalarning tafsiloti berilsa, unga o‘rganish jarayonini motivatsiyalash taklif etilsa, lekin bolaga shu bugun uning uchun mumkin va qulay ishlash imkoniyati qoldirilsa, o‘quvchilar qobiliyati samarali rivojlanadi deb hisoblanadi. V.D.SHadrikov metodikasi asosini har bir o‘quvchining qobiliyatiga qarab o‘qitishga imkon beradigan olti darajadagi o‘quv rejasi, dastur va metodik qo‘llanma tashkil etadi. Har bir fanning murakkablik darajasiga ko‘ra kuchi etgan variantni tanlab olib, o‘quvchilar sinfda tez-tez almashib turadi va fanning hajmi va mazmunini qo‘ldan chiqarmay birgalikda o‘quv dasturini o‘zlashtirishga harakat qiladilar. Murakkablik darajasini tanlash tezlikda amalga oshiriladi, “ba’zan” uni amalga oshirib bo‘lmaydi, chunki u sinfdagi o‘quvchilarning tenglashish, o‘quvchilarning qobiliyati holatiga bog‘liq bo‘ladi.

Murakkablikning olti darajasi amalda barcha bolalarga e’tibor berishga, barchaning kuchi etadigan, o‘quvchining qobiliyatiga, uning rivojlanishiga moslangan, o‘quv jarayonini tashkil etishga imkon beradi.

Bu o‘qitishni individuallashtirish mualliflik texnologiyasi negizida umumiy tamoyillar mavjud:

- individuallashtirish o‘qitish jarayoni strategiyasidir;
- individuallashtirish–individuallikni shakllantirishning zaruriy omili;
- barcha o‘rganiladigan fanlarda individuallashtirilgan o‘qitishdan foydalanishning mumkinligi;
- individual ishlarni o‘quv faoliyatining boshqa shakllari bilan integratsiyalash;
- individual sur’atda, uslubda o‘rganish.

Individuallashtirish texnologiyasining umumiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi;

- ❖ o‘zlashtira olmaslikka olib keluvchi omillarni qayd qilish;
- ❖ fikrlash jarayonida bilim, malaka, ko‘nikmalarni egallash individual kamchiliklarni tuzata olish usullari;
- ❖ oila tarbiyasidagi motivatsiyaning bo‘linmasligi, irodaning sustligi kamchiliklarini qayd qilish va enga olish;
- ❖ qobiliyatli va iste’dodli o‘quvchilarga nisbatan o‘quv jarayonini optimallashtirish (ijodiy faoliyat, sinf va sinfdan tashqari ishlarni hisobga olish);
- ❖ o‘qitish jarayonini tanlash erkinligini berish;
- ❖ umumiy o‘quv malakalari va ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ❖ o‘quvchilarning o‘z-o‘ziga mos baho bera olishini shakllantirish;
- ❖ o‘qitishning texnik vositalaridan, shuningdek, EHMdan foydalanish.

O‘qitishni individuallashtirish texnologiyasiga quyidagilar kiradi:

Batov tizimi. AQSHda ishlab chiqilgan bu tizimda o‘quv jarayoni ikki qismga bo‘linadi:

Birinchi qism- butunicha sinf ishi.

Ikkinchi qism- individual mashg‘ulotlar.

Bunday mashg‘ulotlar unga zaruriyat sezgan o‘quvchilar bilan yo umum tomonidan qabul qilingan me’yorlardan orqada qolmaslik yoki nisbatan rivojlangan qobiliyatlari bilan ajralib turganlar bilan bir qatorda bo‘lishini ta’minlash maqsadida o‘tkaziladi.

YUqori qobiliyatli kategoriya o‘quvchilar bilan o‘qituvchi, nisbatan kamroq qobiliyatli va qoloq o‘quvchilar bilan o‘qituvchi yordamchisi shug‘ullanadi.

Tramp rejasi – bu texnologiya AQSHda juda mashhur. Bu o‘qitish shakllarining shunday tizimiki, unda katta auditoriyadagi mashg‘ulotlar kichik guruhlardagi individual mashg‘ulotlar bilan qo‘shib olib boriladi.

Zamonaviy texnik vositalar yordamida 100-150 kishidan iborat katta guruhlarda yuksak malakali o‘qituvchilar, professorlar ma’ruza o‘qiydilar. 10-15 kishidan iborat kichik guruhlar esa ma’ruza materiallarini muhokama qiladilar, bahs yuritadilar.

Individual ishlar esa maktab kabinetlarida, laboratoriyalarida o‘tkaziladi. Ma’ruza mashg‘ulotlariga 40%, kichik guruhlardagi mashg‘ulot 20%, kabinet va laboratoriyalardagi individual ishlarga 40% ajratiladi. Odatdagi sinf tushunchasi yo‘q, kichik guruhlar ham doimiy emas.

**O‘z-o‘zini nazorat qilish uchun savollar va vazifalar.**

1.SH.A.Amonashvilining insonparvar shaxs texnolgiyasida qanday maqsadlar yotadi?
2.Hamkorlik pedagogikasi qachondan boshlab rivojlana boshladi?
3.O‘qitish texnologiyalariga misollar keltiring.

**ADABIYOTLAR:**

1.Azizxodjaeva N.N. Pedagogicheskie texnologii v podgotovke uchitelya. Tashkent, 2000.
2.Yo‘ldoshev J.G‘. Usmonova S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari.-T.: 2004.
3. Saidaxmedov N.S. YAngi pedagogik texnologiyalar -T: Moliya nashr., 2003

4. Tolipov O‘., Usmanbaeva K.M. Pedagoik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari -T.,2006.

5. «Pedagogik texnologiyalar» kafedrasining o‘quv-uslubiy majmuasi.,T.2010

## MUSTAQIL TA’LIMNING SHAKLI VA MAZMUNI

Magistrantlarni pedagogik faoliyatga muvaffaqiyatli tayyorlash nuqtainazaridan mustaqil bajarish uchun quyidagi ish turlari tavsiya etiladi:

√ muayyan mutaxassislik fani bo‘yicha terminologik lug‘at tuzish;

√ fanning ayrim mavzulari bo‘yicha test tuzish;

√ pedagogik texnologiyalarni tasniflash va tahlil qilish;

√ muammoli o‘qitish texnologiyasini qo‘llagan holda maxsus fanbo‘yicha ma’ruza reja-konspektini ishlab chiqish;

√ mutaxassislik fanlari bo‘yicha davlat ta’lim standartlarigakiritilgan kompetensiyalarni tahlil qilish;

√ zamonaviy pedagogning kasbiy mahorati yuzasidan tavsiya vako‘rsatmalar ishlab chiqish;

√ mutaxassislik fanlari o‘quv dasturlarini tahlil qilish;

√ mutaxassislik fanlarini modul asosida o‘qitish bo‘yicha ishlanmaloyihasini yaratish;

√ masofaviy ta’limda qo‘llash imkonini beruvchi videoma’ruzafragmentini ishlab chiqish;

√ mutaxassislik fanlari bo‘yicha o‘quv adabiyotlari va internetmanbalarini tahlil qilish;

√ mutaxassislik fanlaridan keys ishlab chiqish;

√ mutaxassislik fanlari bo‘yicha boshqotirma tuzish;

√ o‘yinlar va moderatsiya loyihasini ishlab chiqish.

## Mustaqil ishlarning mavzulari

1. Pedagogik texnologiyalar tasnifi.

2. Pedagogik texnologiyalarni tadqiq etishning metodologiktamoyillari.

3. Modulga asoslangan o‘quv dasturlari va ularning tuzilishi

4. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy xususiyatlari.

5. Zamonaviy interaktiv texnologiyalar va ulardan samaralifoydalanish usullari.

6. O‘zbekiston Respublikasida masofaviy ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari.

7. Ma’ruza mashg‘ulotlarining asosiy vazifalari, ma’ruzanitayyorlashning asosiy metodik aspektlari.

8. Kasbiy-pedagogik madaniyat.

9. Multimedia vositalari yordamida o‘quv jarayonini loyihalashtirish va amalga oshirish.

10. Zamonaviy pedagogning kasbiy mahorati.

11. Maxsus fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari.

12. Amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish usullari vatexnologiyalari

## GLOSSARI

**Kompetensiya – inglizcha “Competence” -** tushunchasi lug‘aviy jihatdan bevosita “qobilyat” ma’nosini ifodalaydi. Mazmunan esa “faoliyatda nazariybilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish”ni yoritishga xizmat qiladi

**Kasbiy kompetentlik –** mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, konikma va malakalarning egallanishiva ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi

**O‘zini o‘zi tahlil qilish** pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o‘z amaliy harakatlari mohiyatining o‘rganilishidir

**O‘zini o‘zi baholash** (O‘O‘B) – shaxsning o‘z-o‘zini tahlil qilishi orqali o‘ziga baho berishi. **O‘zini o‘zi baholash** sub’ekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o‘ziga ob’ektiv baho berish, o‘zidan qoniqishni ta’minlaydi

**O‘z-o‘zini rivojlantirish** – shaxsning o‘zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo‘lida aniq maqsad va puxta o‘ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil yetishi

**Individual rivojlanish dasturi (IRD)** – har bir shaxs yoki mutaxassisning o‘zida ma’lum sifat, BKM,kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dastur

**Pedagogning individual rivojlanish dasturi** – mutaxassis sifatida pedagogning individual ravishda o‘zida u yoki bu kasbiy-pedagogik sifat, bilim, ko‘nikma, malakalar, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dasturi

**Mahorat** (a.“mahorat” –mohirlik, ustalik, epchillik)– bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o‘ta mohirlik bilan bajarish.

**Pedagogik mahorat** – pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va sub’ektiv jihatdan o‘ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga egaligi

**Pedagogik bilimdonlik** – pedagogning kasbiy faoliyatni mavjud ijtimoiy talab, huquqiy me’yor va standartlarga muvofiq tashkil etishga bo‘lgan qobilligi, kasbiy tayyorgarlik darajasi

**Bilimdon pedagogga xos sifatlar:**

- ijtimoiy sub’ektlar bilan o‘zaro aloqada,madaniy muloqotda bo‘lish;
- mutaxassislik yo‘nalishi bo‘yicha axborotlarni izlash, topish, ularni ta’lim mazmuniga tayangan holda qayta ishlash va kasbiy faoliyat jarayonida - ulardan samarali foydalana bilish;

o‘quv axborotlarini talabalarga yetkazib bera olish

**Pedagogik refleksiya** – pedagogning shaxs ongi mohiyati, vazifalari, qadriyatlari, qiziqishlari, rag‘batlantiruvchi omillar, fikrlash, idrok, qarorlar qabul qilish, hissiy ta’sirlanish, xatti-harakatlari va boshqalarning mohiyatini anglab yetishi

**Pedagogik odob** – pedagog oldiga uning o‘ziga, kasbiga, jamiyatga, talabalarga va o‘quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga munosabatda bo‘lishiga nisbatan qo‘yiladigan axloqiy talablar tizimi

**Pedagogik obro‘** – pedagogning talabalar, ularning ota-onalari, pedagogik jamoa, shuningdek, jamiyat tomonidan e’tirof etilgan axloqiy maqomi

**Pedagogik qobiliyat** – pedagog tomonidan pedagogik faoliyatni oqilona tashkil etilishi va olib borilishini, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta’minlashda ahamiyatli bo‘lgan xususiyatlar

**Pedagogik qobiliyatga xos ustuvor xususiyatlar:** pedagogik takt (pedagogning talabalar bilan turli faoliyat shakllari bo‘yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar, hulq-atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to‘g‘ri yondashish malakalariga egaligi);

- pedagogik kuzatuvchanlik (pedagogning talabalarga xos bo‘lgan hatto eng oddiy xususiyatlarni ham payqab olish qobiliyatiga egaligi); talabalarga bo‘lgan muhabbat (ularga mehr qo‘yish, mehribonlik ko‘rsatish, ichki yechinmalari, his-tuyg‘ulari, orzu-umidlari, hayotiy intilishlari bilan o‘rtoqlashish, ular uchun qiyin bo‘lgan vaziyatlarda g‘amxo‘rlik qilish); bilimlarni uzatishga bo‘lgan ehtiyoj (pedagog sifatida o‘zidagi mavjud bilimlarni talabalarga berishga intilish)

**Pedagog shaxsida namoyon bo‘lishi zarur bo‘lgan qobiliyat ko‘rinishlari (F.N.Gonobolin):**

- o‘quvchini tushuna olish qobiliyati;
- yosh, psixologik jihatdan barcha o‘quvchilar o‘zlashtira
oladigan materiallarni taqdim eta olish qobiliyati;
- o‘quvchilarning qiziqishlarini rivojlantirish qobiliyati;
- tashkilotchilik qobiliyati;
- pedagogik takt;
- o‘z ishining natijalarini ko‘ra olish va b.

**Didaktik qobiliyatlar** – o‘quv materiallarini aniq, ravshan, oson tushuntirish, talabalarda fanlarga qiziqishni uyg‘otish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi qobiliyat

**Akademik qobiliyatlar** – matematika, fizika, biologiya, kimyo, ona tili, adabiyot, tarix va b. fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirishga imkon beradigan qobiliyat

**Perseptiv qobiliyatlar** – shaxsning ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, talabaning vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog‘liq nozik jihatlarini tushuna olish qobiliyati

**Nutq qobiliyati** – shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini nutq, shuningdek, mimika, pantomimika yordamida
aniq va ravshan ifodalab berish qobiliyati

**Tashkilotchilik qobiliyati** – talabalar jamoasini uyushtira bilish, jamoani jipslashtira olish, pedagogik faoliyatni to‘g‘ri tashkillashtirish qobiliyati

**Avtoritar qobiliyat** – talabalarga hissiy-irodaviy ta’sir etish orqali ular o‘rtasida obro‘ qozonish imkoniyatini yaratuvchi qobiliyat

**Kommunikativ qobiliyat** – talabalar bilan muloqotda bo‘lish, ularga to‘g‘ri yondashishning samarali yo‘lini topish, birgalikda maqsadga muvofiq o‘zaro pedagogik aloqa bog‘lovchi pedagogik taktning mavjudligini ifodalovchi qobiliyat

**Pedagogik xayol** – pedagogning talabalar shaxsini tarbiyaviy jihatdan loyihalashtirishda o‘z xatti-harakatlari natijalarini oldindan ko‘ra olishni ta’minlovchi qobiliyat

**Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati** – pedagogning bir vaqtda o‘z diqqatini bir qancha jarayonga qarata olishini tavsiflovchi qobiliyat

6) muloqotga kirishuvchanlik;

7) hissiy sezgirlik (kasbiy ziyraklik, boshqalarga hamdard bo‘la olish, ichki sezgiga ega bo‘lish);

8) harakatchanlik, ta’lim jarayoni ishtirokchilariga irodaviy ta’sir ko‘rsatish va ishontirish qobiliyatiga egalik;

9) hissiy barqarorlik (o‘z-o‘zini tuta bilish, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘z-o‘zini nazorat qilish);

10) kelajakni maqbul holda bashoratlay bilish;

11) kasbiy mustaqillik, ijodiy qobiliyatga egalik

**Pedagogik muloqot madaniyati** – pedagogning talabalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan pedagogik odob hamda muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiriladigan suhbati

1) shaxsni o‘rganish (bilish);

2) axborot almashish;

3) faoliyatni tashkil etish;

4) hamdard bo‘lish

**Pedagogik hamdardlik** – pedagog tomonidan talabalar, ota-onalar va hamkasblarining xatti-harakatlari, hissiyotlari, hayotiy intilishlari, tabiatlarini tushunish, boshqalar nuqtai nazarini ma’qullash asosida jamoadagi munosabatlarni me’yorda tashkil etilishini ta’minlash

**Pedagogik muloqot turlari:**

1) o‘zaro ijodiy faoliyatga qiziqtiradigan muloqot;

2) o‘zaro do‘stona munosabatga asoslangan muloqot;

3) muayyan masofani saqlagan holda tashkil etiladigan muloqot;

4) qo‘rqitish, tahdid qidishga asoslangan muloqot;

5) hazil-mutoyibaga, yumorga asoslangan muloqot

**Muloqot madaniyati** – muloqot jarayonini axloqiy me’yorlar, ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etish asosida suhbatdoshni tushuna olish ehtiyoji va qobiliyatiga egalik

**Pedagogik relaksatsiya –** talabalarning hissiy faoliyati, ruhiy-jismoniy quvvati va ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash

**Kommunikativ ta’sir ko‘rsatish** – talabalar bilan muloqotda bo‘lish, ularga to‘g‘ri yondashish, pedagogik nazokat bilan ularga tarbiyaviy, irodaviy va hissiy ta’sir etish

**Pedagogik (nazokat) takt** – pedagogning talabalar bilan turli faoliyat shakllari bo‘yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar, hulq-atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to‘g‘ri yondashish malakalariga egaligi

1) shaxsga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

2) yuksak talabchanlik;

3) suhbatdoshni qiziqish bilan tinglay olish

va unga nisbatan qayg‘urish malakasi;

4) ruhiy barqarorlik, dadillik va og‘ir vazminlik;

5) munosabatlar jarayonida ishonch bilan so‘zlay olish;

6) qat’iyatlilik (qaysarlik emas);

7) talabalarga nisbatan e’tiborli va xushyor bo‘lish

- talaba shaxsini hurmat qilish va unga nisbatan talabchanlik;
- turli faoliyat bo‘yicha talabalarda mustaqillikni rivojlantirish va ularning ishlariga oqilona pedagogik rahbarlik qilish;
- talabaning ruhiy holatiga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, unga nisbatan yuksak idrok bilan izchil talablar qo‘yish;
- talabalarga ishonish va ularning faoliyatini nazorat qilib borish;
- ular bilan muloqotni tashkil etishda o‘zini oqlagan ishchan va hissiy xarakterga ega munosabatlarni qo‘shib olib borish

**Pedagogik tajriba** – kasbiy faoliyatni tashkil etish
jarayonida pedagog tomonidan o‘zlashtirilgan orttirilgan
bilim, ko‘nikma va malakalar majmui

**Pedagogik tajribani hosil qilish yo‘llari:**

1) mustaqil o‘qib-o‘rganish;

2) ilg‘or ish tajribalari bilan tanishish;

3) ilmiy anjumanlarda ishtirok etish;

4) o‘zaro tajriba almashish;

5) hamkorlikda pedagogik izlanishlarni olib borish;

6) tajribali shaxslardan maslahat olish va b.

**Nizo** – qarama-qarshi, bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan kuchlar to‘qnashuvi, ikki yoki undan ko‘p taraflar orasida o‘zaro kelishuvning yo‘qligini, manfaatlar to‘qnashuvini ifodalovchi ziddiyat

**Pedagogik nizo** –pedagog va talaba, ota-ona, hamkasblar yoki rahbariyat o‘rtasida pedagogik jarayonda yuzaga kelgan manfaatlar to‘qnashuvi, o‘zaro qarama-qarshilik

**Pedagogik nizoning asosiy belgilari:**

- inqiroz;
- anglashilmovchilik;
- kutilmagan hodisa;
- zo‘riqish;
- noqulaylik, ichki yoki tashqi xavotir, bartaraf etish qiyin bo‘lgan qo‘rquv

**Pedagogik nizolarni samarali hal etish yo‘llari:**

1. Nizoning ta’sir doirasini kengaytirmaslik.
2. Qulay echimlarni taklif qilish.
3. Man etilgan usullarni qo‘llamaslik, shakllardan foydalanmaslik.
4. SHikoyatlar sonini qisqartirish.
5. Ikkinchi darajali masalalarni ham uzviy ravishda hal qilib borish.
6. Nizoga kirishgan sub’ektlar shaxsini kamsitadigan so‘zlardan foydalanmaslik

**Qobiliyatlar-** shaxsning mazkur faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va buning uchun zarur bilim, ko’nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo’ladigan individiual-psixologik xususiyatdir.

**Didaktik qobiliyat-** bu oson yo’l bilan murakkab bilimlarni o’quvchilarga tushuntira olishdir.. Bunda o’qituvchining o’quv materialini o’quvchilarga tushunarli qilib bayon yetishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli

qilib aytib berishi, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'ota olishi ko'zda tutiladi. O'qituvchi zarurat tug'ilgan hollarda o'quv materialini o'zgartira, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz, noaniq narsani tushunarli qila oladi.

**Akademik qobiliyat-** barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi o'z fanini o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chukurroq biladi, o'z fani sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fan- texnika, ijtimoiy- siyosiy hayotga doir qiziqishlari bilan ko'p narsalarni o'rganib boradi.

**Pertseptiv qobiliyat-** qisqa daqiqalarda o'quvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o'qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo'lmagan tashki belgilar asosida o'quvchi ruhiyatdagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.

**Nutqiy qobiliyat-** ixcham, ma`noli, oxangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega bo'lgan nutq; shuningdek, o'qituvchi nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urg'uga rioya qilishi . Qobiliyatli o'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan, ma`qullayotgan yoki qoralayotgan bo'lsa ham uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga karatilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar ifodasi o'quvchi uchun aniq, soda, tushunarli bo'ladi.

**Tashkilotchilik qobiliyati-** sinf- guruhi yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish iste`dodi. Tashkilotchilik o'quvchilarni xilma- xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan o'quvchilar jamoasini uyushtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish bo'lsa,ikkinchidan, o'z shaxsiy ishini to'g'ri uyushtirish qobiliyatidir.

**Obro'gaegabo'lishlikqobiliyati-**o'ziningshaxsiyxususiyati, bilimdonligi, aql-farosatli, mustahkamirodasibilanobro' orttirishuquvchanligi. Fanda bu qobiliyat turi- avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi. Obro'ga ega bo'lish o'qituvchi shaxsiy sifatlarning butun bir kompleksiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga (dadililigi, chidamliligi, qat`iyligi, talab talabchaligi va xakazo) shuningdek, o'quvchilarga ta`lim hamda tarbiya berish ma`suliyatini his etishga, bu ishonchni o'quvchilarga ham etkaza olishiga bog'liq bo'ladi.

## TARQATMA MATERIALLAR VA KEYSLAR TO'PLAMI

**1-расм. Педагогик компетентликнинг
муҳим таркибий асослари**



V.A.Krutetskiypedagoggaxosqobiliyatlarniumumlashtirib, ularningturlariquyidagiekanliginiko‘rsatibo‘tadi:

**Asosiy turlari**

**Didaktik qobiliyatlar** – o‘quv materiallarini aniq, ravshan, oson tushuntirish, talabalarda fanlarga qiziqishni uyg‘otish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi qobiliyat

**Akademik qobiliyatlar** – matematika, fizika, biologiya, kimyo, ona tili, adabiyot, tarix va b. fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirishga imkon beradigan qobiliyat

**Perseptiv qobiliyatlar** – shaxsning ichki dunyosiga kira bilish, psixologik kuzatuvchanlik, talabaning vaqtinchalik psixik holatlari bilan bog‘liq nozik jihatlarini tushuna olish qobiliyati

**Nutq qobiliyati** – shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini nutq, shuningdek, mimika, pantomimika yordamida aniq va ravshan ifodalab berish qobiliyati


Босқичлар
1
Ўз фаолиятини таҳлил қилиш асосида ютуқ ва камчиликларини аниқлаш
2
Ютуқларини бойитиш ва камчиликларни бартараф этиш юзасидан аниқ қарорга келиш
3
Ушбу қарор бўйича амалий ҳаракатларни самарали ташкил этиш йўлларини излаш
4
Хато ва камчиликларни такрорламасликка интилиш
5
Қабул қилинган қарорнинг изчил

**Pedagogik muloqot quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etiladi:**

**Yo‘nalishlar**

- Pedagogning alohida talaba bilan muloqoti
- Pedagogning butun gurux bilan muloqoti
- Pedagogning alohida talaba orqali gurux bilan muloqoti
- Pedagogning gurux orqali alohida talaba bilan muloqoti

**Pedagogik muloqot yo‘nalishlari**

Odatda, pedagogningrahbarsifatidagimuloqotusullariquyidagiuchturgaajratiladi:

Asosiy turlari

- Avtoritar uslub
- Demokratik uslub
- Liberal uslub

**Pedagogik muloq uslublari**

**Nizo** – qarama-qarshi, bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan kuchlar to‘qnashuvi, ikki yoki undan ko‘p taraflar orasida o‘zaro kelishuvning yo‘qligini, manfaatlar to‘qnashuvini ifodalovchi ziddiyat
**Pedagogik nizo** –pedagog va talaba, ota-ona, hamkasblar yoki rahbariyat o‘rtasida pedagogik jarayonda yuzaga kelgan manfaatlar to‘qnashuvi, o‘zaro qarama-qarshilik

Pedagogiknizolarnikeltiribchiqaruvchi**omillar**:

**Asosiy omillar**

- Axborot
- Munosabat
- Hulq

Davomiyligigako‘rapedagogiknizolar bir necha turli bo‘ladi. Ularning asosiy turlari quyidagilardir:




**Pedagogik nizoning asosiy turlari**

Pedagogiknizolarnihaletishdabir qator usullar ham qo‘llaniladi. Ulararorasidaengsamaraliusullarquyidagilarsanaladi:



**Qaysi o'qituvchi hurmatga sazovar?**

| | |
|---|---|
| 5. O'qituvchimizningzo'rlamasdanvabaqirmasdantalabkilaolishdekajoyibxislatibor. | 1. O'zi yaxshi odam-u lekin juda yumshoq-da, uni aldash xech gap emas. |
| 6. Biz uni qattiqqo'l va talabchan bo'lganligi uchun juda yaxshi ko'ramiz. U hamisha osoyishtalik bilan ta'sir etadi | 2. Uning qanday odam ekanligini tushunib bo'lmaydi: bir qarasang qattiqqo'l bir qarasang osoyishtalikva muloyimlik bilan talab qiladi, biroqShunday ta`sir etadiki, unga chidayotganimizni bilmasdi. |
| 7. Ximiya o'qituvchimiz hamishaxotirjam o'zini tutgan odam va shu xislati bilan butun sinfgaqattiq ta`sir ko'rsatadi | Biz P.I ning ketganidan judaxursandmiz. U bizni baqirib-chaqirib,bu |

| | |
|---|---|
| | yruk berishlar bilan qo'lga olmoqchi edi, ammo unga majburan quloq solmay ilojing yo'q. |
| 8. Har qanday sharoitda ham u o'z obro'sining saqlanishiga erishadi | 4. Biologiya o'qituvchisining obro'yinisaqlamay ko'r-chi |

**Ta'lim oluvchi diqqatining vaqtga nisbatan o`zgarib borishi**




Kreativliksifatlari

**Муҳим сифатлар**

Ижодий йўналганлик ↔ Мантиқий фикрлай олиш

Эрудиция (билағонлик) ↔ Бой тасаввур

## Testlar

1. O‘qitish metodikasi tushunchasi:

a. pedagogning o‘qitish usullari va o‘quvchining o‘qish usullari hamda o‘quvchining o‘qituvchi bilan o‘zaro bog‘langanligini;

b. o‘qitishdan ko‘zlangan maqsadga erishish bo‘yicha hamkorlikda ishlashning o‘ziga xosligi, ya'ni o‘qitish metodlar belgilangan maqsadga yetish uchun ta'lim vazifalarini hal etishda o‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyatidir.

c. a va b javoblar to‘g‘ri

2. Metodika qanday fan?

a. Metodika insonni shakllantirishda muayyan maqsadgayo‘naltirilgan tizimli faoliyat to’g’risidagi fandir.

b. Metodika – ta’lim-tarbiya berishning mazmuni, shakli va metodlari (uslublari) haqidagi fandir.

c. a va b javoblar to‘g‘ri

3. “Metodika” qanday ma’noni bildiradi?

a. Biror ishni maqsadga muvofiq bajarish usullari majmuyi

b. Ta’limning metodik usullari yig‘indisi

c. O‘quv predmeti

4. Chet til o‘qitish metodi deyilganda nima tushuniladi?

a. Chet til o‘qitishning amaliy, umumta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta’minlovchi o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatining majmuyi
b. Chet til o‘qitishning amaliy, umumta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta’minlovchi ta’lim vositalari majmuyi
c. Chet til o‘qitishning amaliy, umumta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta’minlovchi mashqlar majmuyi

5. Oquvchilarni tarbiyalash va ularga ta’lim berishda asos boladigan qonun-qoida qanday nomlanadi?
a. Prinsip
b. Yondashuv
c. Metod

6. “Pedagogika” so‘zi qaysi tildan olingan?
a. Yunon tilidan
b. Grek tilidan
c. Lotin tilidan

7. “Metodologiya” so‘zi qaysi tildan olingan?
a. Yunon tilidan
b. Grek tilidan
c. Lotin tilidan

8. Metodologiya nima?
a. Ta’limot
b. Tamoyil
c. Qonun-qoida

9. Faoliyatning tarkibi, mantiqiy tuzilishi, metod va vositalari haqidagi ta'limot nima?
a. Metodologiya
b. Pedagogika
c. Metodika

10. Metodologiya nimani o‘rgatadi?
a. metodlargavaumumanvoqyelikkaqanday yondashishyo‘linio‘rgatadi.
b. texnologiya va jarayonga qanday yondashishyo‘linio‘rgatadi.
c. o‘quvchining o‘rganish faoliyati va o‘qituvchining o‘rgatish faoliyatini anglatadi

11. Chet til ta’limi(didaktika)ning qanday tamoyillari mavjud?
a. pedagogik, psixologik, didaktik
b. lingvodidaktik, lingvopsixologik, psixolingvistik
c. barcha javoblar to‘g‘ri

12. Lingvodidaktika nima?

a. Tillarni oqitish umumiy nazariyasi
b. til o‘qitish metodologiyasi
c. chet til o‘qitish metodologiyasi

13. Lingvometodika nima?
a. Aniq bir tilni o‘qitish ilmi
b. Aniq bir tilni o‘qitish metodikasi
c. Tillar ta’limshunosligi

14.Metod nima?
a. voqelikni amaliy yoki nazariy o‘zlashtirish usullari
b. o‘qituvchi bilan talabalarning ta’lim-tarbiyadan qo‘yilgan maqsadga erishishga qaratilgan tartibga solingan, tizimlashtirilgan faoliyatidir
c. barcha javoblar to‘g‘ri

15.Chet til o’qitishning asosiy qoidalarini aniqlang.
a. tushunarlidan - tushunarsizga
b. yaqindan - uzoqqa
c. osondan - qiyinga

16. Dars o‘tishning uslubini tanlash nimalarga bog‘liq?
a. O‘qitilayotgan guruhning darsga tayyorgarlik darajasi va o‘rganiladigan predmet.
b. Darsda o‘tiladigan mavzu, mavzuning mazmuni va darso‘tishdaqo‘llashmumkinbo‘lgantexnikvositalarningmavjudligi va boshqalar.
c. Barcha javoblar to‘g‘ri

17. Darsningtarkibiyqismiga nimalar kiradi?
a. darsdakerakbo‘ladigan me‘yoriy hujjatlar - na‘munaviydastur,ishchidastur,o‘quvrejasi,taqvimiy reja,darslik,o‘quv-metodikqo‘llanmalar,ma‘ruzaningmatniyokidarsloyixasiva boshqadidaktikmateriallarkiradi.
b. kirish, uy vazifasini tekshirish, yangi mavzuni tushuntirish, mustaxkamlash, yakunlash
c. ta’lim oluvchi, ta’lim beruvchi va ta’lim vositalari

18. Umumiy metodikaning vazifasiga nimalar kiradi?
a. Til materialini tanlash, taqsimlash, tasnif va bayon etish muammolari
b. Nutq materialini tanlash, taqsimlash, tasnif va bayon etish muammolari
c. U yoki bu chet tilni aniq pedagogik sharoitda oqitishga doir ilmiy ma’lumotlar

19. Xususiy metodikaning vazifasiga nimalar kiradi?
a. Til materialini tanlash, taqsimlash, tasnif va bayon etish muammolari
b. Nutq materialini tanlash, taqsimlash, tasnif va bayon etish muammolari

c. U yoki bu chet tilni aniq pedagogik sharoitda o‘qitishga doir ilmiy ma’lumotlar

20. Chet til o‘qitishning qiyosiy metodikasida qanday muammolar ko‘tariladi?

a. turli o‘quv yurtlarida chet til o‘qitish muammolari

b. turli ta’lim sharoitlarida chet til o‘qitish muammolari

c. turli yoshdagilarga chet til o‘qitish muammolari

21. Chet til o‘qitish qanday ma’noni bildiradi?

a. chet tilda nutqni o‘rgatish

b. chet tilda nutq faoliyat turlarini o‘rgatish

c. chet tilda muloqot qilishni o‘rgatish

22. Tildagi qaysi birlik hajman ko‘p miqdorni tashkil etadi?

a. leksika

b. grammatika

c. fonetika

23. Til nima?

a. birliklar va ularning aloqasi sistemasi

b. og‘zaki va yozma matn

c. individual hodisa

24. Kishilik jamiyatida tilning asosiy vazifasi nima?

a. aloqa vositasi

b. ma’lumot olish vositasi

c. ma’lumot berish vositasi

25. Nutq nima?

a. og‘zaki va yozma matn

b. individual hodisa

c. barchasi to‘g‘ri

26. Chet tilda nutq muloqoti yuritishni o‘rgatish qanday maqsad sanaladi?

a. amaliy

b. tarbiyaviy

c. ta’limiy

27. Chet til o‘qitishning tarbiyaviy maqsadi qanday?

a. g‘oyaviy-siyosiy tarbiya; aqliy mexnat malakalarini xosil qilish; o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish

b. tilda nutq muloqoti yuritishni o‘rgatish

c. xotira va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; oquvchilar bilim saviyasi va umumiy madaniyatini yuksaltirish

28. Chet til o‘qitishning ta’limiy maqsadi qanday?

a. g‘oyaviy-siyosiy tarbiya; aqliy mexnat malakalarini xosil qilish; o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish

b. tilda nutq muloqoti yuritishni o‘rgatish

c. xotira va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; o‘quvchilar bilim saviyasi va umumiy madaniyatini yuksaltirish

29. O‘quvchi shaxsini aqliy, hissiy va motivatsion xususiyatlarini rivojlantirish chet til oqitishning qanday maqsadi sanaladi?

a. rivojlantiruvchi

b. ta’limiy

c. tarbiyaviy

30. Xotira va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish; o‘quvchilar bilim saviyasi va umumiy madaniyatini yuksaltirish chet til oqitishning qanday maqsadi sanaladi?

a. rivojlantiruvchi

b. ta’limiy

c. tarbiyaviy

31. «*Konsepsiya*»atamasiqandaytushunchalarniifodalaydi?

a. Konsepsiya – ilmiyg‘oya(lar)
b. Konsepsiya – ta’limiy g‘oya(lar)
c. Konsepsiya – tarbiyaviy g‘oya(lar)

32. Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limda xorijiy tillarni o‘qitish metodikasi qanysi ta’lim konsepsiyalari asosida rivojlantirilmoqda?

a. «*(Inter)Cultural Awareness*»va «*Humanity*»
b. «*Language Awareness*» va «*Humanity*»
c. Yuqoridagilarning barchasi

33. *(Inter)Cultural Awareness konsepsiyasining ma’nosi ……*

a. Madaniyatlararo muloqot
b. Millatlararo muloqot
c. Tillararo interferensiya

34. *(Inter)Cultural Awareness* – Madaniyatlararomuloqotkonsepsiyasidastlabqayerdashakllantirildi?

a. Germaniyada
b. Fransiyada
c. Belgiyada

35. Chet tillarni kichik yoshdan o‘rgatish amaliyoti qaysi gipoteza yoki nazariya asosida ommalashdi?

a. Kritik davr gipotezasi
b. Eng yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi
c. Mediasiya nazariyasi

36. *Cultural Awareness* konsepsiyadachettilta'liminingqaysi jihatigaustuvorahamiyatqaratilgan?

a. Mamlakatshunoslik
b. Lingvistik
c. Psixologik

37. *Cultural Awareness* konsepsiyasiYevropadaqanday nomlangan?

a. Qo'shni (qardosh) tilnio'rganish
b. Begona tilni o'rganish
c. Begona madaniyatni o'rganish

38. *«Language Awareness»* – konsepsiyasiyana qanday nomlanadi?

a. Holistic approach
b. Communicative approach
c. Audiolingual approach

39. L.S.Vigotskiyning fikricha harqandayo'rganiladiganqismningasosininima tashkilyetishi lozim?

a. Mazmun
b. Mundarija
c. Bilim

40. O'zbekistonda boshlangich chet til ta'limi qaysi konsepsiya asosida revojlantirilmoqda?

a. Humanity
b. Cultural awareness
c. Language awareness

41. Humanity konsepsiyasiga muvofiq chettildanutqiyfaoliyatyuritishnimani shakllantirishgayo'naltiriladi?

a. o'quvchishaxsini
b. o'quvchimadaniyatini
c. o'quvchiongini

42. Lingvodidaktika nima?

a. tillarta'limshunosligi
b. madaniyatlar ta'limshunosligi
c. umumiy ta'limshunoslik

43. "O'quvchilarning chet til o'rganish usullari, strategiyalari va qobiliyatini inobatga olish" va "Tinglab tushunish mashqlariga ustuvor ahamiyat qaratish" qaysi tamoyillaarga kiradi?

a. Didaktik
b. Lingvistik

c. Psixolingvistik

44. Ilmiymanbalardachettilo‘qitishningqaysipsixologiktamoyillariishlabchiqilgan?

a. «verbalizatsiya» va «korrelatsiya»
b. «imprivizatsiya» va «korrelatsiya»
c. «verbalizatsiya» va «immitasiya»

45. Qaysi tamoyilda o‘quvchilarningchettilo‘rganish, o‘zlashtirishgamotivatsiyasi (ichkiturtkisi)nioshirish nazarda tutiladi?

a. Psixolingvistik
b. Lingvistik
c. Lingvodidaktik

46. O‘quvchilarnionatilivao‘rganilayotganchettilningo‘xshashjihatlaridanxabardoretishqaysi tamoyilda muhim sanaladi?

a. Psixolingvistik
b. Lingvistik
c. Didaktik

47. Vizualyondashuvvamultisensor (barchanutqanalizatorlarinito‘liqqo‘zg‘atuvchi) o‘rganishnitatbiqetishqaysi tamoyilda muhim sanaladi?

a. Metodik
b. Lingvistik
c. Psixolingvistik

48. O‘quvchilarningindividualxususiyatlarinie’tiborgaolishqaysi tamoyilda muhim sanaladi?

a. Pedagogik
b. Metodik
c. Lingvistik

49. Darslarnikompetensiyalaregallanishigamo‘ljallanganintegrativyondashuvasosidatashkiletish qaysi tamoyilga asoslanadi?

a. Pedagogik
b. Metodik
c. Psixologik

50. Ta’lim tizimidagi boshqa fanlardan chet tilning farqi qanday?

a. U ta’lim maqsadi va ta’lim vositasi
b. U ta’lim maqsadi
c. U ta’lim vositasi

51. Chet tilda nutqiy malakalar qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

a. Tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozuv

b. Gapirish, yozuv, tinglab tushunish, o‘qish

c. O‘qish, yozuv, gapirish, tinglab tushunish

52. «*Chet til o‘rganish*» metodik termini qanday ma’noni ifodalaydi?

a. ushbu tilda gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuv ko‘nikma va malakalarining egallanishini

b. ushbu tilde leksika, grammatika, talaffuz va imloga oid bilimlarning egallanishini

c. kommunikativ kompetensiyaning egallanishini

53. Ta’lim sharoiti tushunchalardan kelib chiqib kichik maktab yoshida chet tilni o‘zlashtirish va o‘rganilishining qanday nazariyalari ishlab chiqilgan?

a. Mutanosiblik va Tillararo

b. Universal grammatika

c. Tillararo interferensiya va Kontrastiv taxlil

54. Mutanosiblik nazariyasi ga mufoiq –

a. ona tili va chet til o‘zlashtirish jarayonlari aynan o‘xshash

b. ta’lim sharoitining xos xususiyatlari chet tilni muvaffaqiyatli o‘rganilishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi

c. barchasi to‘g‘ri

55. Mutanosiblik va Tillararo nazariyalari didaktikaningqaysi tamoyiliga asoslanadi?

a. Onglilik

b. Ong ishtirokisiz

c. Osondan qiyinga

56. Qaysi nazariya tarafdorlariningfikricha, onatilivaikkinchitilnio‘zlashtirishjarayonlaribirxildir?

a. Mutanosiblik

b. Tillararo

c. Barchasi to‘g‘ri

57. Ona tilidan tashqari fan asoslaridan saboq beradigan ayrim predmetlarni o‘rganiladigan chet tilda o‘qitish yondashuvi qanday nomlanadi?

a. Content and language integrated learning

b. Learning centered teaching

c. Learner centered teaching

58. Tillararonazariyagamuvofiqchettilo‘rganishjarayonigata’siretuvchiqandayomillarhisobgaolinishilozim?

a. chettilo‘rganuvchiningyoshgaoid (psixologikvabilishfaolligi) xususiyatlari

b. ta’limmazmunivamaqsadihamdaulargamuvofiqishlabchiqilganta’limvositalar i

c. a va b javonlar to‘g‘ri

59. O‘zbekistonda chet til ta’limiqanday maqsadga yonaltirilgan?

a. ikkinchi tildagi axborot sohibini (kognizant) shakllantirishga

b. o‘rganilayotgantilsohibiyaratganmadaniymerosningo‘rganilishiga

c. a va b javoblar to‘g‘ri

60. O‘zbekistonda ingliztili qaysi yondashuvasosidao‘rgatiladi?

a. kommunikativfaoliyatko‘rsatish, shaxsgayo‘naltirilgan, kompetensiyaniegallashgamo‘ljallanganintegrativ yondashuv

b. shaxs va uning faoliyatiga yo‘naltirilgan kompetensiyaviy yondashuv

c. kommunikativ kompetensiyaning egallanishiga yo‘naltirilgan yondashuv

61. Mamlakatimizda chettilta’limidaqanday metodtatbiqetiladi?

a. kommunikativ-kumulyativ

b. audiolingual

c. Grammatik tarjima

62. Ko‘nikma nima?

a. ongli bajariladigan chet tilda nutq malakasining avtomatlashgan tarkibiy qismidir.

b. ong ishtirokisiz avtomatlashgan faoliyat

c. barchasi to‘g‘ri

63. Malaka nima?

a. ong ishtirokisiz avtomatlashgan faoliyat

b. ong ishtirokidagi avtomatlashgan faoliyat

c. barchasi to‘g‘ri

64. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga chet til qaysi maqsadda o‘rgatiladi?

a. amaliy maqsad, umumta’limiy maqsad

b. tarbiyaviy maqsadva rivojlantiruvchi

c. barchasi to‘g‘ri

65. Chet til o‘qitishning amaliy maqsadiga erishish yo‘lida umumta’lim maktab kursida chet til o‘rgatishning yakuniy amaliy maqsadi

a. tinglab tushunish va o‘qish

b. gapirish va yozuv

c. yozuv va chet tilda tinglab axborot olish

66. I-IV sinflarda amaliy maqsad nima?

a. tinglab tushunish va gapirish

b. gapirish va o‘qish

c. yozish va gapirish

67. Amaliy maqsadga qanday erishiladi?

a. lingvistik, sosiolingvistikva pragmatik kompetensiyalarni egallash orqali

b. lingvistik va pragmatik kompetensiyalarni egallash orqali

c. lingvistik,va sosiolingvistikkompetensiyalarni egallash orqali

68. Mamlakatimizda ta’limning barcha bosqichlarida chet til o‘qitishning asosiy maqsadi o‘rganuvchilarning ko‘p madaniyatli dunyoda kundalik, ilmiy va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun chet tilda qaysi kompetensiyani shakllantirishdan iborat?

a. Kommunikativ

b. Pragmatik

c. Sotsiolingvistik

69. Chettillarnibilishningboshlang‘ichA1 darajasiqanday nomlanadi?

a. “Kurtaklash bosqichi” (Breakthrough/Survivallevel / Beginner / Survival

b. Formulaic Proficiency / Introductory / Substitutianal level of proficiency)

c. A va b javoblar to‘g‘ri

70. Nutqiy kompetensiya tarkibini aniqlang.

a. Tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozuv

b. Leksika, grammatika, orfografiya, fonetika

c. A va b javoblar to‘g‘ri

71. Lingvistik kompetensiya tarkibini aniqlang.

a. Tinglab tushunish, gapirish, o‘qish, yozuv

b. Leksika, grammatika, orfografiya, fonetika

c. A va b javoblar to‘g‘ri